



# PEDAGOG

RESPUBLIKA ILMIY JURNALI

The journal "Pedagog" covers the sphere of spiritual and educational thinking of a person, the socio-political life of a person, institutions of civil society, global problems, problems of education, new technologies produced today, reforming the education system and publishes scientific articles on open scientific popular analysis.

The journal is intended for students, masters, professional scientists and researchers, university professors. The publication publishes articles of a problematic and scientific-practical nature.



Exact  
Natural  
Medical  
Technical  
Economics  
Philological  
Pedagogical  
Social sciences  
and humanities





## «BEST PUBLICATION»

*Ilmiy-tadqiqotlar markazi ©*

---

**“PEDAGOG”  
RESPUBLIKA ILMIY-USLUBIY JURNALI**

---

## MATERIALLARI TO‘PLAMI

**15-IYUN, 2020-YIL**

**3-JILD, 2-SON**

**O‘ZBEKISTON**

**2020**

"PEDAGOG" mualliflar va o'qituvchilarga o'quv amaliyoti va boshqa sohalarda o'z ilmiy maqolalarini nashr etish imkoniyatini beradi. "PEDAGOG" jurnalni uch oyda bir marta ko'rib chiqiladigan ochiq kirish jurnalidir. Jurnal axloqiy ochiq nashr etikasi va amaliyotiga amal qiladi. Nashr qilish uchun qabul qilingan barcha maqolalar, uslubiy qo'llanmalar va metodik tavsiyalar ikki tomonlama ko'rib chiqish jarayonidan o'tadi. Jurnal konstruktivizm, hamkorlik, yaxlitlik, aks ettirish va so'rovga asoslangan o'qitish hamda o'qitishning ko'p tarmoqli sohalarini o'z ichiga qamrab oladi.

**Eslatma! Jurnal materiallari to‘plamiga kiritilgan maqolalardagi raqamlar, ma’lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to‘g’riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.**

## MUNDARIJA / TABLE OF CONTENTS / СОДЕРЖАНИЕ

<b>Umarova Saodatxon</b>	
<i>BOSHLANG'ICH SINFLARDA MIQDOR TUSHUNCHASINI O'RGAATISH VAQT SISTEMASI MISOLIDA</i>	<b>8</b>
<b>Tairova Lobar Asatillayevna</b>	
<i>MUKAMMAL SONLAR</i>	<b>10</b>
<b>Mamayusupov Istambek Nazar o'g'li</b>	
<i>MATEMATIKA O'QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI</i>	<b>12</b>
<b>Sultanova Malika Mahmudovna</b>	
<i>MASALA. MATEMATIK MASALA TUSHUNCHASI.</i>	<b>15</b>
<b>Nazarov Vohidjon Shakarboyevich,</b>	
<b>Maozqulov Jasur Amriddin o'g'li</b>	<b>17</b>
<i>QADIMGI GRESIYADA MATEMATIKA RIVOJIDA PIFAGORNING O'RNI</i>	
<b>Бобокул Суванов</b>	
<i>МАТРИЦАЛАР ВА УЛАР ҲАҚИДА УМУМИЙ ТУШУНЧАЛАР</i>	<b>20</b>
<b>Шакирова Хилола Абдурахимовна</b>	
<b>Хужамбердиев Шерзод Мусурманович</b>	<b>23</b>
<i>ИССЛЕДОВАНИЕ ПРОЦЕССА ДЕГИДРАТАЦИИ ФОСФАТОВ НАТРИЯ</i>	
<b>Qahhorova Zaytuna Abdug`ulom qizi</b>	
<b>Namozova Zuhra Rustam qizi</b>	<b>26</b>
<b>Navro`zova Zarina Alim qizi</b>	
<i>BUYRAK FUNKSIYASINING BUZILISHI</i>	
<b>Botirova Durdigul Rustam qizi</b>	
<i>UZUMNING "PUSHTI TOYIFI" NAVINING QALAMCHALARINI SAQLASH UCHUN TAYYORLASH CHORA-TADBIRLARI</i>	<b>28</b>
<b>Botirova Durdigul Rustam qizi</b>	
<i>UZUMNING "NIMRANG" NAVINI O'SUV DAVRIDA EGATLAB SUG'ORISHNING QO'LLANILISHI</i>	<b>30</b>
<b>Gulira'no Musliddinovna Qahorova</b>	
<b>Jonibek Rashitovich Raximov</b>	
<b>Mehrinisho Sodiq qizi Muhammedova</b>	<b>33</b>
<b>Ilhom Ikromovich Jo`rayev</b>	
<i>IBN SINO ASARLARIDA KASALLIKLAR PROFILAKTIKASI</i>	
<b>Shamsiyev Ozod Fazliddinovich</b>	
<b>Sultanov Fayoz Mamasoliyevich</b>	<b>36</b>
<i>INTRAOPERATIVE ENDOSCOPIC CORRECTION OF CHOLEDOCHOLITHIASIS</i>	
<b>Joldasova Gulshexra</b>	
<i>TEMIR VA UNING QOTISHMALARIGA TERMIKAVIY ISHLOV BERISH</i>	<b>38</b>
<b>Shamsiyev Ozod Fazliddinovich</b>	
<b>Ikromov Shaxzod Ulugbekovich</b>	<b>40</b>
<i>LICHENSTEIN PLASTIC FOR INGUINAL HERNIA</i>	
<b>Султонова Н.З.</b>	
<b>Кенжаев М.Э.</b>	<b>41</b>

<b>ИССЛЕДОВАНИЕ ПРОЦЕССА СОЛЯНОКИСЛОТНОГО ВЫЩЕЛАЧИВАНИЯ АЛЮМИНИЯ ИЗ КАОЛИНОВЫХ ГЛИН АНГРЕНСКОГО МЕСТОРОЖДЕНИЯ</b>	
<b>Shamsiyev Ozod Fazliddinovich</b> <b>Bakirov Asadullo Abduqodirovich</b> <i>OBJECTIVE ASSESSMENT OF POSTOPERATIVE RESULTS IN PATIENTS WITH CHRONIC PANCREATITIS</i>	<b>44</b>
<b>Shamsiyev Ozod Fazliddinovich</b> <b>Xusenov Ixtiyor Nuruloyevich</b> <i>REPEATED RECONSTRUCTIONS OF THE DIGESTIVE TRACT IN THE SURGERY OF THE OPERATED STOMACH</i>	<b>45</b>
<b>Sailova Manzura Yangiboyevna</b> <i>BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA TAYANCH KOMPETENSIYALARНИ SHAKLLANTIRISHDA MUAMMO VA YECHIMLAR</i>	<b>47</b>
<b>Sattarova Gulsanam Baxromjonovna</b> <i>BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI</i>	<b>50</b>
<b>Shamsiyev Ozod Fazliddinovich</b> <b>Narzikulov Akbarali Sodikovich</b> <i>SOME FEATURES OF TREATMENT OF DIAPHRAGM HERNIAS WITH THE USE OF LAPAROSCOPIC ANTI-REFLUX METHODS</i>	<b>52</b>
<b>Tadjimuratova Rano Maxset qizi</b> <i>STAPHYLOCOCCUS ANTIBIOTIC SENSITIVITY IN VAGINITIS</i>	<b>53</b>
<b>Shamsiyev Ozod Fazliddinovich</b> <b>Isomiddinova Sohiba Bakhtiyorovna</b> <i>SURGICAL TACTICS FOR COMPLICATED FORMS OF CHRONIC PANCREATITIS</i>	<b>55</b>
<b>Tursunmurodov Hikmat Karomatulloyevich.</b> <b>Hamroqulov O'tkirkbek O'ktam o'g'li</b> <b>Fayzullayev Sayidkamol Sayidahmat o'g'li</b> <i>BIOLOGIYA DARSALARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING ILMIY-NAZARIY AHAMIYATI</i>	<b>57</b>
<b>Тураева З.Б.</b> <b>Кенжаев М.Э</b> <i>ВЛИЯНИЕ ТЕМПЕРАТУРЫ И ПРОДОЛЖИТЕЛЬНОСТИ ПРОЦЕССА НА СТЕПЕНЬ ИЗВЛЕЧЕНИЯ АЛЮМИНИЯ ИЗ КАОЛИНОВЫХ ГЛИН</i>	<b>60</b>
<b>Xoliqova Nigora Aminovna</b> <i>FIZIKA DARSALARIDA ZAMONAVIY AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH AFZALLIKLARI</i>	<b>63</b>
<b>Кодиров Ахмаджон Абдурауфович</b> <i>ИНГИЧКА ТОЛАЛИ ТЕРМИЗ-202 ФЎЗА КЎСАКЛАРИНИНГ ОЧИЛИШ МУДДАТЛАРИГА БОҒЛИҚ ҲОЛДА ЧИГИТНИНГ СИФАТ КЎРСАТКИЧЛАРИГА ДЕФОЛИАНТЛАРНИНГ ТАЪСИРИ</i>	<b>65</b>
<b>Yuldashev Ikromjonov</b> <i>IMPORTANT PHYSICAL ASPECTS OF SPORT GAMES</i>	<b>70</b>
<b>Диярова Нигинабону Азамжон Кизи</b>	<b>72</b>

<b>ИЗУЧЕНИЕ ВОЗМОЖНОСТЕЙ КОМПЛЕКСА ГЕОФИЗИЧЕСКИХ МЕТОДОВ НА ЗОЛОТОРУДНОМ МЕСТОРОЖДЕНИЕ ЧАРИМИТАН</b>	
<b>Утамуродова Мехрангиз Аъзам қизи Хужамбердиев Шерзод Мусурманович ЭКСТРАКЦИОН ФОСФОР КИСЛОТАСИНИ НЕЙТРАЛЛАШ ЖАРАЁНИДА ҲОСИЛ БЎЛГАН ШЛАМНИНГ РЕНТГЕНОГРАФИК ТАҲЛИЛИ</b>	<b>75</b>
<b>Файзуллаев Олламурод Тўхтамуродович РАДИАЦИЯВИЙ ХАВФСИЗЛИКНИ ТАЪМИНЛАШ СОҲАСИНИ ТАРТИБГА СОЛИШ</b>	<b>78</b>
<b>Н.Абдулазизова СОГЛОМ ТУРМУШ ТАРЗИНИНГ БАРҚАРОРЛАШТИРИШ ИЖТИМОИЙ ТАРАҚҚИЁТ ОМИЛИ</b>	<b>80</b>
<b>Абдуалимов Шухрат Хамадуллаевич Таджиев Карим Марданакулович ТАКРОРИЙ ЭКИЛГАН СОЯ ДОН СИФАТИГА СТИМУЛЯТОРЛАРНИ ҚЎЛЛАШ УСУЛЛАРИНИ ТАЪСИРИ</b>	<b>83</b>
<b>Жалолиддин Махмудов БАЛКАНИНГ СОФ ЭГИЛИШИ БИЛАН СИЛЖИШНИ ҲИСОБГА ОЛГАН ҲОЛДАГИ ЭГИЛИШНИНГ ТАҚҚОСЛАШ</b>	<b>88</b>
<b>Ro'ziqulov Jasur O'ktam o'g'li Sobirov Komil Sodiq o'g'li, Nasrullayev Alpomish Anvarjon o'g'li Qurbanboyev Sindorbek Sarvarbek o'g'li YOPIQ GORIZONTAL DRENAJLARNI TOZALASHNING MUAMMO VA YECHIMLARI</b>	<b>92</b>
<b>М.А.Eshanov G.Nuraddinova DISKRET PROGRAMMALASTIRIW MÁSELELERINIŃ MODELLERI</b>	<b>94</b>
<b>Эгамберганов Дилмурод Икромович АНАЛИЗ ЧАСТО ИСПОЛЬЗУЕМЫХ СУШИЛОК В ПРОИЗВОДСТВЕ</b>	<b>99</b>

## BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MIQDOR TUSHUNCHASINI O‘RGATISH VAQT SISTEMASI MISOLIDA

**Umarova Saodatxon**

*Farg’ona viloyati Bag’dod tumani  
1-ixtisoslashtirilgan davlat umumta’lim maktabining  
boshlang’ich sinf o’qituvchisi*

**Annotasiya:** Matematikada o‘rganiladigan asosiy tushunchalardan biri miqdor tushunchasidir. Boshlang’ich sinflarda uzunlik, jismning massasi va hajmi, vaqt, figuraning yuzi kabi miqdorlar o‘rganiladi. Boshlang’ich sinflarda bu miqdorlarni asosiy miqdorlar deyiladi. Bundan tashqari boshlang’ich sinf o‘quvchilari ba’zi hosilaviy miqdorlar (tekis harakat tezligi va boshqalar) bilan ham tanishadilar. Hosilaviy miqdorlarni o‘rganishda ularni o‘lchash masalasi o‘rganilmaydi. Ushbu maqolada boshlang’ich sinflarda miqdor tushunchasini o‘rgatishning umumiy metodikasi vaqt sistemasi misolida ochib beriladi.

**Kalit so’zlar:** miqdor, uzunlik, massa,...

Miqdorlar, xuddi raqamlar kabi boshlang’ich sinflarda matematika mashg‘ulotlarining asosiy tushunchasi bo‘lib, bolalarda miqdor haqida predmetlar va voqiyilikka aloqador va o‘lchov bilan bog‘liq sifat tasavvur hosil qilish uchun foydalaniadi.

1-2-sinflarda o‘quvchilar uzunlik, massa, (og‘irlilik) hajm, vaqt haqida va ularning o‘lchov birliklari haqida tasavvurga ega bo‘ladilar. Misollarni yechish jarayonida ular baho, qiymat, miqdor, narx, tezlik, masofa, unumdarlik tushunchalari bilan tanishadilar.

Mavzuni o‘rganish jarayonida shunga erishish zarurki, o‘quvchilar o‘zaro bog‘liq, ammo mutlaqo boshqa-boshqa mazmunga ega bo‘lgan “Miqdor va raqam” tushunchalarini aniq farqiga bora olishlari kerak. Masalan, sim o‘ramidan bir bo‘lak kesib olib, o‘lcham birligi detsimetrdan foydalanim, 1 dm, 2 dm, 3 dm, ..., 20 dm kabi uzunliklarni belgilab boramiz. Ya’ni mazkur o‘lcham birligini sim uzunligi bo‘yicha ketma-ket qo‘yish bilan o‘lchaymiz va tegishli nomi bilan – (20 dm) yozib qo‘yamiz.

Agar boshqa o‘lcham birligi, masalan, santimetrdan foydalangan bo‘lsa, miqdorning raqam belgisi o‘zgacha bo‘lganiga erishamiz. Bu raqamni ham tegishli nomi bilan (20 sm) yozib qo‘yamiz. Metr o‘lcham birligidan foydalansak mazkur miqdorning yana bir raqami ko‘rinishga ega bo‘lamiz (2 m).

Raqam va o‘lchamlar tushunchalarini o‘zaro farqlash uchun bu bosqisda mazkur yordamlardan nixoyatda ehtiyyotkorlik bilan foydalinish kerak bo‘ladi. 78,40,11,99 kabi misollardan belgilarni qo‘llash bilan bog‘liq mashqlarni shakllantirishda, aynan raqamlarning (sonlarning) o‘zini solishtirish zarurligi 23 sm, 2 dm, 5dm, 1m kabi mashqlarni yechishda esa miqdorlar taqqoslashayotganini qayta-qayta takidlanishi lozim.

Miqdor va son (raqam) iboralarni qo‘llash bilan bog‘liq boshqa mashqlar ham shu kabi aniq va tushunarli ifodalanishi kerak. Masalan; “385 va 481 sonlarini qo‘shing”, yoki “3 m 85 sm hamda 4 m 81 sm miqdorlarni qo‘shing” kabi.

U yoki bu miqdor haqida tasavvurni shakllantirish va ularni o'lhash usullari o'ziga xoslikka ega bo'lsa ham, har bir miqdorni o'rganishda umumiy bosqichlarni aloxida takidlash maqsadga muvofiq bo'lar edi O'qituvchi harbir miqdorni o'rganish jarayonida ana shularga tayanib, o'quvchilar faoliyatini quyidagicha tashkil etish mumkin.

Vaqt o'rgatish bo'yicha metodik sxema

1. Bolalarda mavjud mazkur miqdorlar haqidagi tushunchalarni aniqlash (bolalarni hayotiy tajribasiga murojaat etish).
2. Bir xil nomli miqdorlarni solishtirishi (chamalab ko'rinish, o'lcham va boshqa xil usullar bilan).
3. Mazkur miqdorning o'lchov birligi va o'lchov asboblari bilan tinishtirish.
4. O'quvchilarda o'lcham ko'nikmalari hosil qilish.
5. Bir xil nomdagagi miqdorlarni qo'shish va ayrish (masalalarni yechish jarayonida).
6. Miqdorlarni yangi o'lchov birliklari bilan tanishtirish, bir nomdagagi miqdorlarni boshqa o'lchov birliklariga aylantirish. Ikki bir xil nomli o'lchov birliklarini bitta ikki nomli o'lchov birligiga aylantirish va aksincha.
7. Ikki xil nomli miqdorni qo'shish va ayrish.
8. Miqdorlarni sonlarga ko'paytirish va bo'lish.

Turli miqdorlar haqida tasavvurlarni shakllantirish maqsadida turli amaliy mashqlar va misollar bajariladi, namoyish etiluvchi va alohida ko'nikmali vositalardan foydalaniladi. Bu ish barcha o'quvchilar ishtirokida, alohida-alohida har bir o'quvchi bilan va guruh usulida amalga oshiriladi. O'quvchilar "Miqdor" tushunchasining asosiy belgilarini turli xil amaliy mashg'ulotlar davomida va turli xil muammoli sharoitlar tufayli o'zlashtirib oladilar.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Bikbayeva N.U, R.I.Sidelnikova, G.A.Adambekova. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. (O'rta maktab boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma.) Toshkent: "O'qituvchi", 1996 y.
2. Bikboyeva.N.U. Yangiboeva E.Ya. Ikkinci sinf matematika darsligi. Toshkent. "O'qituvchi", 2010 yil.
3. Bikboyeva.N.U. Yangiboeva E.Ya. Uchinchi sinf matematika darsligi. Toshkent. "O'qituvchi", 2010 yil.
4. Jumayev M.E, Tadjiyeva Z.G'. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. (O O'Y uchun darslik.) Toshkent. "Fan va texnologiyai", 2005 yil.

## MUKAMMAL SONLAR

Tairova Lobar Asatillayevna

*Qibray tumanidagi 3- maktab matematika o'qituvchisi*

**Annotasiya :** *Ushbu maqolada mukammal sonlar, ularning xususiyatlari va ushbu sonlar tarixi haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar :** *mukammal sonlar, Yevklid, "Negizlar", ...*

MUKAMMAL SONLAR — o'zidan farqli bo'luvchilarning yig'indisiga teng natural sonlar. Masalan, eng kichik mukammal son 6 bo'lib, o'z bo'luvchilarning yig'indisiga teng ya'ni  $6=1+2+3$ , ikkinchi Mukammal son bu 28 bo'lib, u ham shu qoidaga ko'ra sifatlanadi:  $28=1+2+4+7+14$ . 6 va 28 dan keyingilari - 496 va 8128 bo'lib, ular mos ravishda:  $496=124+62+31+16+8+4+2+1$       va;       $8128=4064+2032+1016+508+254+127+64+32+16+8+4+2+1$  bo'luvchilari yig'indisidan iborat. Keyingi mukammal sonlar ham o'z bo'luvchilarning yig'indisiga teng bo'lib, ular quyidagicha:

33550336

8589869056

137438691328

2305843008138952128

2658455991569831744654692615953842176

191561942608236107294793378084303638130997321548169...

Mukammal sonlar birinchi bo'lib Yevklidnnng «Negizlar» asarida uchraydi. Unda 4 ta juft sonlar berilgan . Ayni vaqtida 20 ta juft Mukammal sonlar ma'lum. Ulardan eng kattasi 24422 (2441 — 1) soni bo'lib, 1962- yilda aniqlangan. Toq mukammal sonlar shu kungacha ma'lum emas. Agar ular ma'lum bo'lsa ham juda katta sonlar bo'lishi ehtimol. Agar,  $2p-1$  ifoda tub son bo'lsa, unda  $2p-1(2p-1)$  mukammal juft son bo'lishi isboti bilan keltirilgan edi. Keyinchalik, Leonard Eyler barcha juft mukammal sonlar, Yevklid keltirib o'tgan yuqoridagi ifodaga bo'ysunishini isbotlab berdi.

$p=2, 3, 5, 7$  shartga mos keluvchi dastlabki to'rtta mukammal sonni, ya'ni, 6, 28, 496 va 8182 mukammal sonlarini Geras shahridan bo'lgan Nikomah (Nikomah Gerasskiy) ismli matematik o'zining "Arifmetika" nomli kitobida bayon qilgan. Mukammal sonlar qatoridan beshinchisini, ya'ni, 33550336 sonini XV-asrda olmon matematigi Regiomontan topgan. XVI-asrda, Sheybl ismli yana bir olmon matematigi keyingi ikkita mukammal sonni, ya'ni, 8589869056 va 137438691328 ni aniqladi. Ular,  $p=17$  va  $p=19$  ga mos keladi. 1772-yilda Leonard Eylerning o'zi  $p=31$  ga mos keluvchi va tartib bo'yicha sakkizinch mukammal sonni hisoblab topgan. U 2305843008138952128 soni edi. 1883-yilda Rossiyalik oddiy qishloq matematika o'qituvchisi Pervushin tomonidan  $p=37$  ga mos keluvchi, to'qqizinch mukammal son aniqlangan.

XIX-asr oxiri va XX-asr boshlarida matematiklar  $p=89$ ,  $p=107$  va  $p=127$  ga mos keluvchi yana uchta mukammal sonlarni topishgan. Lekin, bu inson imkoniyatlari va sabr-

toqati bilan topilgan oxirgi mukammal sonlar bo‘ldi. Chunki, e’tibor bergen bo‘lsangiz, endilikda gap milliard yoki, trillionlar xonasi haqida, emas, balki, undan ham katta sonlar ustida bormoqda. Kompyuter tugul, oddiy kalkulyatorlar ham bo‘limgan zamonlarda, matematiklar ushbu sonlarni hisoblab topish uchun qanchalik ter to‘kishganini tasavvur qilishning o‘zi qiyin.

Undan keyingi aniqlangan mukammal sonlarning barchasi kompyuterlar vositasida topilgan bo‘lib, ularni matematik usul bilan qo‘lda hisoblash har qanday o‘tkir zehnli matematik uchun ham murakkablik qiladi. Hozirda, 2018-yilning 1-aprel holatiga matematika fanida jami 50 ta shunday mukammal son aniqlangan bo‘lib, ularning barchasi juft sonlardir. Toq mukammal sonlarni qidirish ham davom etmoqda. Shunisi aniqki, agar, son o‘qida, basharti qayerdadir juda katta, ulkan toq mukammal son bo‘lsa ham, uning 101500 dan katta bo‘lishi tayin.

Hozirda, mukammal sonlarni izlash bilan maxsus loyiha qatnashchilari shug‘ullanmoqdalar. GIMPS deb nomlanuvchi ushbu loyiha mersenne.org saytida o‘z natijalarini e’lon qilib boradi. Ushbu loyiha ishtirokchilari 2008-yilda qiymati 107 dan katta bo‘lgan dastlabki mukammal sonni aniqlashgan. Hozirgi kunda aniqlangan eng katta mukammal son esa 243112609 - 1 ga teng bo‘lib, u 12978189 xonadan iborat.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI :**

- 1.Baldor, A. 1986. Arifmetik. Nashrlar va tarqatish kodeksi.
- 2.Hammasi oddiy sonlar haqida. Do’stona raqamlar. Qayta tiklandi: Númeroprimos.org.
- 3.Wolfram MathWorld. Eyler qoidasi. Mathworld.wolfram.com

# MATEMATIKA O'QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARING AHAMIYATI

**Mamayusupov Istambek Nazar o'g'li**  
*Surxondaryo viloyati Qumqo'rg'on tumani*  
*81-maktab matematika fani o'qituvchisi*

**Annotasiya:** *O'qituvchilarning matematika fani asoslarini o'qitishda yo'naltirilgan mashg'ulotlar jarayonini noan'anaviy shakllarda tashkil etish maqsadida pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati juda katta. Ushbu maqolada ushbu jarayonining ahamiyati haqida so'z yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *Pedagogik texnalogiya, texnik yondashuv ...*

Ma'lumki, matematika boshqa fanlarga solishtirganda biroz ko'proq aqliy qobilyatni talab qiladi. Bu fanni o'zlashtirish o'quvchidan ko'proq mehnat va qunt bilan o'rganishga chorlaydi. Shuning uchun algebra, geometriya kabi darslarni pedagogik texnologiyalardan foydalanish asosida o'tish o'quvchilarning darsni tushunib, qiziqish bildirishlari uchun juda muhimdir. Bu nafaqat o'qituvchilar balki o'quvchilar uchun ham birdek yordamkash usul hisoblanadi. Chunki pedagogik texnologiyalardan foydalanish o'qituvchilar va talabalarning, o'quvchilarning ham ishlarini osonlashtiradi, yengillatadi. Darsga qiziqishni oshiradi, diqqatni jamlashga, zerikib qolmaslikka ko'maklashadi. Xususan ushbu mavzuni ham pedagogik texnologiyalardan foydalangan holatda olib borish o'quvchilarning mavzuni osonlik bilan tushunishlariga, vaqtini tejash natijasida ko'proq misollar yechishga yordan beradi. Namoyish qilinadigan slaydlar o'quvchilarning qiziqishlarini jalb qilib, diqqatlarini oshiradi. Bu darsda olib boriladigan pedagogik texnologiyalar shu bilan birga o'quvchilarni epchillikka, tezkor fikrlashga, sheriklar bilan ishlashga yordam beradi.

Pedagogik texnologiya-ta'lismetodlari, usullari, yo'llari hamda tarbiyaviy vositalar yig'indisi: u pedagogik jarayonning tashkiliy-uslubiy vositalari majmuidir.

Pedagogik texnologiya-ma'lumotlarni o'zlashtirish uchun qulay shakl va usulda uzatish va o'zlashtirish jarayonidan iborat.

Ta'lismishiga texnologik yondashuv:

- ta'lismishiga maqsadini aniq belgilashni;
- o'qish-o'qitish jarayonini uzviy bog'liq bosqichlar, fazalar, amallarga ajratish, bo'lishni;
- ta'lismishiga mo'ljallangan natijaga erishish uchun bajariladigan harakatlarni muvofiqlashtirish, ketma-ket, bosqichma-bosqich amalga oshirishni;
- loyihalashtirilgan ishlar, amallarning barchasini bir xil bajarishni nazarda tutadi.

**"BESHINCHISI (OLTINCHISI, YETTINCHISI, ...) ORTIQCHA METODI**

O'quvchilarning mantiqiy tafakkur yuritish ko'nikmalariga ega bo'lishlarida ushbu metod alohida ahamiyatga ega. Uni qo'llash quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- o'rganilayotgan mavzu mohiyatini ochib berishga xizmat qiluvchi tushunchalar tizimini shakllantirish;

- hosil bo‘lgan tizimdan mavzuga taalluqli bo‘lgan 4 ta (5 ta, 6 ta, ...) va taalluqli bo‘lmanan bitta tushunchaning o‘rin olishiga erishish; o‘quvchilarga mavzuga taalluqli bo‘lmanan tushunchani aniqlash va uni tizimdan chiqarish vazifasini topshirish;
- o‘quvchilarni o‘z harakatlari mohiyatini sharhlashga undash (mavzuni mustahkamlash maqsadida o‘quvchilardan tizimda saqlanib qolgan tushunchalarga ham izoh berib o‘tishlari hamda ular o‘rtasidagi mantiqiy bog‘likni asoslashlarini talab etish lozim).

Mavzu mohiyatini yorituvchi tushunchalar o‘rtasidasigi mantiqiy bog‘likni ko‘rsata va asoslash olish o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, shaxsiy yondashuvlarini asoslay, shuningdek, tengdoshlarining fikrlari bilan shaxsiy mulohazalarini o‘zaro taqqoslash ko‘nikmalarini ham shakllantiradi. Quyida ayrim metodlar keltirilgan bo‘lib, ular ning darsdagi katta ahamiyati ko‘rsatib beriladi:

“3/3” (“4/4”, “5/5”, ...) metodi

Mazkur metod ham yuqorida qayd etilgan metodlarning muqobili hisoblanib, o‘quvchilardan o‘rganilayotgan mavzu (yoki bo‘lim, bob) yuzasidan tahliliy mulohaza yuritish, shuningdek, eng muhim tayanch tushunchalarni ifodalay olishni talab etadi. Unga ko‘ra o‘qituvchi mavzu (yoki bo‘lim, bob) yuzasidan 3 ta (4 ta, 5 ta va ...) to‘g‘ri va unga teng nisbatda (3 ta, 4 ta, 5 ta va ...) bo‘lgan va noo‘rin qo‘llanilgan tushunchalar (so‘zlar, belgilar, tasvirlar va...)dan iborat tizimni shakllantiradi. O‘quvchilar ushbu tizimdan mavzu (yoki bo‘lim, bob)ga taalluqli bo‘lmanan tushunchalarni ajratadilar va harakatlarining mohiyatini izohlaydilar.

Metodni qo‘llashda quyidagi harakatlar tashkil etiladi:

- o‘qituvchi o‘zaro teng nisbatda mavzu (yoki bo‘lim, bob)ga oid va oid bo‘lmanan asosiy tushunchalar tizimi yaratadi;
- o‘quvchilar mavzu (yoki bo‘lim, bob)ga oid va oid bo‘lmanan asosiy tushunchalarni aniqlaydilar va daxldor bo‘lmanan asosiy tushunchalarni tizimdan chiqaradilar;
- o‘quvchilar o‘z harakatlarining mohiyatini izohlaydilar.

Metoddan individual, guruhli va ommaviy shaklda o‘quvchilar tomonidan mavzuning puxta o‘zlashtirilishini ta’minlash hamda ularning bilimlarini aniqlash maqsadida foydalanish mumkin.

#### “AQLIY HUJUM” METODI

Mazkur metod muayyan mavzu yuzasidan berilgan muammolarni hal etishda keng qo‘llaniladigan metod sanalib, u mashg‘ulot ishtirokchilarini muammo xususida keng va har tomonlama fikr yuritish hamda o‘z tasavvurlari va g‘oyalaridan ijobiy foydalanish borasida ma’lum ko‘nikma hamda malakalarni hosil qilishga rag‘batlantiradi.

Metodni qo‘llashdan ko‘zlangan asosiy maqsad o‘quvchilarni muammo bo‘yicha keng fikr yuritishga undash ekanligini yodda tutgan holda ularning faoliyatini baholab borishdan voz kechish maqsadga muvofiqdir.

- Masalan: 1) Aralash sonlar qanday qo‘shiladi?  
2) Aralash sonlar qanday ayiriladi? Misollar keltiring.

3) Natural sondan to‘g‘ri kasrni ayirish qanday bajariladi?

Xulosa qilib aytganda, matematika darslarida Pedagogik texnologiya latdan foydalanish o‘quvchilar qobiliyati, imkoniyati va ehtiyojlarini hisobga olgan holda, ta’lim shakllarini amalga oshirish uchun ko‘zlangan natijaga erishishda eng qulay yo‘l va usullami tanlash va ishlab chiqish mahorati ekan, u haqiqatdan ham ta’lim jarayoni unumдорligini oshiradi, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o‘quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o‘zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko‘nikma va malakalarini shakllantiradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. N.N.Alimov, J.R.Turmatov, «Pedagogik texnologiyalar», o‘quv-uslubiy qo’llanma. Jizzax, 2007.
2. Научно-методические основы проблемного обучения в вузе, издательство Ростовского университета, 1988 год.

**MASALA. MATEMATIK MASALA TUSHUNCHASI.****Sultanova Malika Mahmudovna***Andijon viloyati Andijon shahar**25-umumta'lim maktabi matematika fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola orqali masala va matematikadagi masala tushunchasi haqida o'zingiz uchun kerakli ma'lumotlarni bilib olishingiz mumkin.*

**Kalit so'zlar:** *masala, masalaning sharti, masalaning talabi, mantiqiy xulosalar, matematik amallar va matematik qonunlar.*

Masala- bu kundalik hayotimizda uchraydigan vaziyatlarning tabiiy tildagi ifodasıdır. Masala asosan uch qismdan iborat bo'ladi.

1. Masalaning sharti-o'r ganilayotgan vaziyatni xarakterlovchi ma'lum va no'malum miqdoriy qiymatlar hamda ular orasidagi miqdoriy munosabatlari haqidagi ma'lumot yetkazishdir.
2. Masalaning talabi-masala shartidagi miqdoriy munosabatlarga nimani topish kerakligini ifodalash demakdir.
3. Masalaning operatori-masala talabini bajarish uchun shartdagi miqdoriy munosabatlarga nisbatan bajariladigan amallar yig'indisi

Masalaning tarbiyaviy funksiyasi o'quvchilarni mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalaydi. Matematika fanining o'r ganadigan ob'ekti materiyadagi narsalarning fazoviy formalari va ular orasidagi miqdoriy munosabatlarni o'r ganishdan iboratdir. Masala yechish jarayonida o'quvchilarga bilim berish bilan birga o'quvchilar qobiliyatlarini rivojlantirish, o'quvchilarga tarbiya berish kabi muhim masalalar hal qilinadi. Masalalar o'quvchilarda mehnatsevarlik, jur'atlilik, iroda va harakterni tarbiyalaydi. Mantiqiy xulosalar, matematik amallar va matematik qonunlar hamda metodlarga asoslangan holda yechiladigan muammo, odatda matematik masala deyiladi.

Matematik ta'lif jarayonida masalalardan foydalanish qadim zamondan beri qo'llanib kelinayotir. Shuning uchun ham matematika darslarida matematik masalaning roli va uning o'rni haqida gap borganda quyidagi uch bosqichni ko`zda tutish maqsadga muvofiqdir.

1. Matematika fanining nazariy qismlarini o'r ganish matematik masalalarni yechish maqsadida amalga oshiriladi.

2. Matematika fanini o'r gatish matematik masalalarni yechish bilan birgalikda olib boriladi.

3. Matematikani o'r ganish masala yoki misollar yechish orqali amalga oshiriladi.

Aytilganlardan ko`rinadiki, jamiyat rivojlanishining har bir bosqichida masalaning roli va uning o'rniiga har xil baho berib kelangan. 1966 yili xalqaro matematiklar simpoziumida matematik masala va misollarni echish o'quvchilarning faqatgina matematik faoliyatlarini shakllantiribgina qolmay, balki ana shu fanga doir bilimlarni o'zlashtirish va uni amaliyotga tadbiq qilishga ham xizmat qiladi, deyiladi.

O'qituvchi matematika darsida yechiladigan masalalar orqali o'quvchilarni mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalash mumkin. Buning uchun o'qituvchi halol va sifatli mehnatni ulug'laydigan masalalarni tanlashi lozim.

Matematik tushunchalarini o'rghanish matematik misol va masalalarni yechish bilan birgalikda olib boriladi, chunki o'qituvchi yangi o'rghaniladigan matematik tushunchaning ta'rifini bergandan keyin uning analitik ifodasini yozadi. Hozirgi davrda masala yoki misollar yechish orqali matematik ta'lim jarayonini olib borishning metodik usul va vositalari ishlab chiqilgan va bu usullar haqida ko'pgina ilmiy metodik va didaktik adabiyotlarda bayon qilingan. Matematik tushunchani masala yoki misollar yordamida kiritish va uning tub mohiyatini o'quvchilarga tushuntirish murakkab bo`lgan pedagogik jarayondir. Shuning uchun ham bir maktab o'qituvchisi dars jarayonida ishlatiladigan masalani tanlash yoki uni tuzishda juda ham ehtiyoj bo`lmog`i lozimdir. Tuzilgan masalalarni dars jarayonida qo`llanish ana shu o'quvchilarning o`zlashtirish qobiliyatlarini hisobga olgan holda bo`lishi kerak. Har bir dars jarayonida ishlatiladigan masala yoki misol darsning maqsadiga mos kelishi kerak. Agar darsda o'qituvchi o'quvchilarga biror yangi matematik tushunchani o`rgatmoqchi bo`lsa, tuziladigan masala yoki misol ana shu tushuncha mohiyatini ochib beruvchi xarakterda bo`lishi kerak. Maktab matematika kursidagi masala yoki misollarni yechish o'quvchilarda matematik malaka va ko`nikmalarni shakllantiribgina qolmay, balki olingan nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiq qila olishini ham ko`rsatadi. Agar o'qituvchi kvadrat tenglama mavzusini o'tib uni, mustahkamlash jarayonida kvadrat tenglamaga keltiriladigan masalalarni echib ko`rsatsa, o'quvchilarni ana shu mavzu materiali yuzasidan bilimlari mustahkamlanadi.

Mantiqiy masalalarni yechish bilan birgalikda biz aqliy faoliyatimizni to'g'ri yo'lga yo'naltirilgan bo'lamic. Bu kabi masalalar o'quvchilar tomonidan qiziqarli tarzda qabul qilinadi. Har bir o'tilgan dars davomida o'quvchilarga bu kabi masalalardan mustaqil ta'lim sifatida qo'shimcha bir yoki bir nechta masala berish, ularning bu fanga bo`lgan qiziqishini oshiradi, bu o'quvchilarga berilgan topshiriqlarni yodda saqlab qolishiga yordam beradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Sharofat Nematova "Matematika fanini o"qitishning nazariy masalalari va metodikasi" "Tafakkur nashriyot" T.: 2011
2. Umumiy o"rta ta"lim va o"rta maxsus, kasb-hunar ta"limida "Matematika" T.: 2010

**QADIMGI GRESIYADA MATEMATIKA RIVOJIDA PIFAGORNING O'RNI.**

**Nazarov Vohidjon Shakarboyevich,**

**Maozqulov Jasur Amriddin o'g'li.**

*Samarqand viloyati Samarqand shahar*

*Ulug'bek nomidagi matematika va fizika fanlariga ixtisoslashgan  
davlat umumta'lim maktab internatining matematika fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Qadimgi Gresiya matematika rivojida matematik olim Pifagornimg hissasi haqida qisqacha ma'lumotlar keltirilgan.*

**Kalit soz'lar:** *matematika, manbalar, algebra, trigonometriya, geometriya, sonlar, o'lchashlar.*

Misr va Vavilon olimlari juda ko'p matematik kashfiyotlarni qo'lga kiritdilar, natural va kasr sonlar ustidagi amallar qoidalarni topdilar, lekin fan ham o'z yo'lida yuz yillar davomida rivojiana bordi.

Eramizgacha VSh-V asrlarda qadimgi greklarning matematik bilimlari taxminan o'sha saviyada edi. Lekin eramizgacha V asrdan boshlab grek matematikasi yangi fundamental kashfiyotlar bilan boyidi, tubdan burilish yasaldi va o'z predmeti usullariga ega bo'la bordi. U abstrakt deduktiv fanga aylanib o'rghanish sohasi matematik tushunchalardan iborat bo'la bordi. Ular orasidagi munosabatlarni tadqiq etish usuli bo'lib aksiomalar sistemasiga va oldin isbotlangan teoremlarga asoslangan mantiqiy mulohazalar hisoblana boshladi. Greklar birinchi bo'lib isbotlash g'oyasiga keladilar va hozirgacha saqlanib qolgan isbotlashlarning mantiqiy shaklini yaratdilar.

Ayni shu davrdan boshlab bilimlarning nazariy asosini tashkil etuvchi sifatida matematik tarixi boshlanadi. Shu paytdan e'tiboran matematika tabiat qonunlarini tasvirlash, amalda masalalar yechish vositasi uchun universal til degan fikr ham paydo bo'lgan.

Uch yuz yil mobaynida qadimgi Gresiya olimlari shunday nazariyalarini yaratdilarki, ularning haqiqatdan chuqur va ilmiyligi faqatgina XIX va XX asr matematiklarigina tushunishlari va baholashlari mumkin edi.

Qadimgi Gresiya birinchi olimi bo'lib **Fales Miletshkiy** (eramizgacha 638-637- 548-547 yillar) hisoblanadi. Undan boshlab misr va vavilon empirik matematikasi deduktiv fanga aylana boshladi, grek matematikasi asoschilaridan yana biri **Pifagor Samoschkiy** (eramizgacha 571-570- 497-496 yillar) edi.



Pifagor eramizgacha 580 yilda Kichik Osiyo qirg'oqlarida (Egey dengizidagi Samos orolida) tug'ilgan. Uning binrinchi o'qituvchisi Germodamas edi, u Pifagorni musiqa va tasviriy san'atga o'rgatdi. So'ngra Pifagor Lesbos oroliga jo'nadi va u yerda Ferekidda astrologiya, medisina, matematikani o'rganadi. Keyin buyuk olim Miletga jo'nadi va u yerda Falesning ma'ruzalarini eshitdi. Misrda Pifagor mefis donishmandlari bilan aloqada bo'ldi, keyinroq Misrda donishmandlardan ilm o'rgandi. Faraon Amazis vafot etganda, uning vorisi fors shohi Kambizga boj to'lashdan bosh tortdi va natijada urush boshlandi. Urush davrida u, Pifagor forslarga asir tushdi. Vavilonda asirlikda ekanida Pifagor sharq astrologiyasi va boshqa fanlar bilan tanishdi.. 12 yildan so'ng Pifagor haqida fors shohi Dariy Gistasp eshitdi va u olimni ozod etdi. Shundan so'ng Pifagor Krotonda o'zining falsafiy maktabini tuzdi.U axloqiy mukammallik va bilish haqida ma'ruzalar qildi, buning uchun uni axloqlar senzori, shaharninsh ruhiy otasi deb tayinlashdi..Pifagor kishilarni unga ma'lum fanlarga o'rgata boshladi, musiqa tovushlarini tadqik etib va bog'lanishlarni matematik ifodalab musiqa nazariyasini rivojlantirdi.

Pifagor ko'p e'tiborni matematik tadqiqotlarga qaratdi. Proporsiyalar nazariyasi asoslarni yaratdi. U uning nomi bilan atalgan teoremani o'sha davrda yagona bo'lgan qulay geometrik usul bilan isbotladi. Pifagor maktabida Yerning shar shaklida ekanligi farazi ilgari surildi Sonlar haqidagi ta'limot pifagorchilarda din kabi saviyaga ko'tarildi. Masalan, ular juft sonlarni ayollar, toq sonlar erkaklar soni deb hisoblashgan. (chunki juft soni toq son bilan qo'shganda toq son hosil bo'ladi) Nikoh ramzi 5, bo'lib uch erkak soni, ikki ayol soni qo'shilishiga teng. O'z bo'lувchilari yig'indisiga teng bo'lgan sonlarni mukammal sonlar deb atashgan. Har bir ikkinchisining bo'lувchilar soniga teng bo'lgan sonlar jufti do'st sonlar deyilgan. Pifagorchilarda sonlarning geometrik tavsifi bor edi (shakldagi uchlар soniga ko'ra, ya'ni 1 - nuqta, 2 – kesma, 3 - uchburchak, 4 - tetraedr). Bu sonlar yig'indisi ( $1+2+3+4$ ), 10 ga teng, u Olamning ramzi hisoblangan.

Pifagor Metaponte (Janubiy Italiya)da eramizgacha taxminan 500 yilda vafot etgan, u yerga Krotonagi qo'zg'olondan keyin qochib o'tgan edi. Uning shogirdlari Buyuk Gresiyaning turli shaharlariga ko'chib o'tib, u yerlarda pifagorchilar jamiyatlarini tashkil

etdilar.

U geometriyani turli masalalarni yechish qoidalari yig'indisidan abstrakt fanga aylantirdi. Uning fikricha asosiy narsa maydonlar yuzasi, don saqlagichlar hajmi, to'siqlar uzunliklari va h.k. lar emas, balki geometrik figuralar – real mavjud narsalar xossalarini o'zida mujassam etgan ideallashtirish, abstraksiyalar hisoblaninshi lozim.

Pifagor mакtabida asosan sonlar nazariyasi, muntazam ko'pyoqlar ta'limoti yaratildi. Pifagorchilar o'lchovdosh bo'lman kesmalarni kashf etdilar va butun matematika rivojida burilish yasadilar.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.K. A. Rubnikov. Iстория математики. «Nauka», M., 1974.
2. E. Kolman. Iстория математики в древности, «Fiz- matgiz», M., 1961.

## МАТРИЦАЛАР ВА УЛАР ҲАҚИДА УМУМИЙ ТУШУНЧАЛАР

Бобокул Суванов

Яккабог туман 66-мактаб  
математика фани уқитувчisi.  
Узбекистон Республикаси

**Аннотация:** Үшбү маколада Матрицалар ҳақида умумий тушунчалар, Матрицалар устида амаллар, Матрица, матрицанинг ўлчами, тенг матрицалар, матрицаларнинг йигиндиси, матрицани сонга кўпайтиши, матрицалар кўпайтмаси, матрица ҳакида суз боради.

**Калит сузлар:** Матрица, тенг матрицалар, матрицалар кўпайтмаси, матрицалар алгебраси, квадрат матрица.

Системаларни моделлаштиришда **матрицалар алгебраси** деган тушунча муҳим аҳамиятга эга . Режалаштириш муаммолари, ялпи маҳсулот, жами меҳнат сарфи, нархни аниқлаш ва бошқа масалалар ҳамда уларда компьютерларни қўллаш матрицалар алгебрасини қарашга олиб келади. Ишлаб чиқаришни режалаштириш, моддий ишлаб чиқариш орасидаги мавжуд боғланишларни ифодалашда ва бошқаларда, маълум даражада тартибланган ахборотлар системасига асосланган бўлиши лозим. Бу тартибланган ахборотлар системаси муайян жадваллар кўринишида ифодаланган бўлади. Мисол ўрнида моддий ишлаб чиқариш тармоқлари орасидаги ўзаро боғлиқлик ахборотлари системасини қарайлик. Ишлаб чиқариш 5 та (масалан, машинасозлик, электроэнергия, метал, кўмир, резина ишлаб чиқариш саноатлари) тармоқдан иборат бўлсин. Бунда улар орасидаги ўзаро боғлиқлик 1-жадвал билан ифодалансин.

1-жадвал.

Тармоқ-лар	1	2	3	4	5
1	$a_{11}$	$a_{12}$	$a_{13}$	$a_{14}$	$a_{15}$
2	$a_{21}$	$a_{22}$	$a_{23}$	$a_{24}$	$a_{25}$
3	$a_{31}$	$a_{32}$	$a_{33}$	$a_{34}$	$a_{35}$
4	$a_{41}$	$a_{42}$	$a_{43}$	$a_{44}$	$a_{45}$
5	$a_{51}$	$a_{52}$	$a_{53}$	$a_{54}$	$a_{55}$

Бу жадвалда  $a_{ij}$  ( $i, j = 1, 2, 3, 4, 5$ ) лар билан,  $i$ -тармоқнинг  $j$ -тармоққа етказиб берадиган (таъминлайдиган) маҳсулоти миқдори белгиланган, чунончи,  $a_{21}, a_{22}, \dots, a_{25}$  лар 2-тармоқнинг мос равишда ҳамма тармоқларга;  $a_{31}, a_{32}, \dots, a_{35}$  лар эса 3-тармоқнинг мос равишда ҳамма тармоқларга етказиб берадиган маҳсулотлари

миқдорини билдиради.  $a_{22}$ ,  $a_{33}$  лар мос равища 2,3-тармоқларнинг ўз эҳтиёжларига сарфини ифодалайди.

Юқоридагига ўхшаш ишлаб чиқариш мезони (нормаси) ахборотлари системасига сонли мисол қарайлик. Корхона 3 турдаги хомашё ишлатиб 4 хилдаги маҳсулот ишлаб чиқарадиган бўлсин, бунда хомашё сарфи нормаси системаси 2-жадвал билан берилган бўлсин.

2-жадвал

Хом Ашёлар	Маҳсулотлар			
	1	2	3	4
1	2	3	2	0
2	4	0	3	5
3	3	5	2	4

2-жадвалда масалан, 1-турдаги хомашё сарфи нормаси мос равища 1,2,3,4-хилдаги маҳсулотлар ишлаб чиқариш учун 2,3,2,0 бўлади.

1 ва 2 жадваллар, математикада ўрганиладиган матрицалар тушунчасининг мисоллари бўла олади. Матрицалар иқтисодий изланишларда кенг қўлланилмоқда, хусусан, улардан фойдаланиш ишлаб чиқаришни режалаштиришни осонлаштириб, меҳнат сарфини камайтиради, ҳамда режанинг ҳар хил вариантларини тузишни ихчамлаштиради. Бундан ташқари ҳар хил иқтисодий қўрсаткичлар орасидаги боғлиқликни текширишни осонлаштиради. Бу ҳолатлар матрицаларни умумий ҳолда қарашга олиб келади.

1-таъриф.  $m$  та сатрли ва  $n$  та устунли тўғрибурчакли  $m \cdot n$  та элементдан тузилган жадвал

$$A = \begin{pmatrix} a_{11} & a_{12} & \cdots & a_{1n} \\ a_{21} & a_{22} & \cdots & a_{2n} \\ \hline \cdots & \cdots & \cdots & \cdots \\ a_{m1} & a_{m2} & \cdots & a_{mn} \end{pmatrix}$$

$m \times n$  **ўлчамли матрица** дейилади.  $A$  матрицани қисқача ( $a_{ij}$ ) ( $i = 1, \dots, m$ ,  $j = 1, \dots, n$ ) билан ҳам белгилаш мумкин. Матрицаларда сатрлар сони устунлар сонига тенг бўлса, бундай матрицалар **квадрат матрица** деб аталади.

**ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЕТЛАРРУЙХАТИ:**

1. Boboeva M.N., Rasulov T.H. The method of using problematic équation in teaching theory of matrix to students // Academy. 55:4 (2020).C. 68-71.
2. Rasulov T.H., RashidovA.Sh. The usage of foreign experience in effective organization of teaching activities in Mathematics // International Journal of Scientific & Technology Research. 9:4 (2020).C. 3068-3071.
3. MardanovaF.Ya., Rasulov T.H. Advantages and disadvantages of the method of working in small group in teaching higher mathematics // Academy. 55:4 (2020). C. 65-68.
4. Расулов Т.Х. Инновационные технологии изучения темы линейные интегральные уравнения // Наука, техника и образование. 73:9 (2020). С. 74-76.
5. Бобоева М.Н. Проблемная образовательная технология в изучении систем линейных уравнений с многими неизвестными // Наука, техника и образование. 73:9 (2020). С. 48-51.
6. Rasulov T.H., Rasulova Z.D. Organizing educational activities based on interactive methods on mathematics subject // Journal of Global Research in Mathematical Archives, 6:10 (2019). C. 43.

# ИССЛЕДОВАНИЕ ПРОЦЕССА ДЕГИДРАТАЦИИ ФОСФАТОВ НАТРИЯ

**Шакирова Хилола Абдурахимовна**  
**Хужамбердиев Шерзод Мусурманович**  
*Ташкентский химико-технологический институт*

Среди полифосфатов натрия наиболее широкое применение находит триполифосфат натрия, который получают из смеси дигидро- и гидрофосфатов натрия. Поэтому исследование начато с установления оптимальных технологических параметров получения полифосфатов натрия из дигидро- и гидрофосфатов натрия и их смеси, полученных путем их кристаллизации из растворов, высущенных при 95-105°C [1-3].

Исследования проводили в стекленном реакторе, снабженном механической мешалкой и помещенном в термостат. В качестве исходной ЭФК использовали кислоту производства АО «Аммофос-Максам», полученную в дегидратном режиме из мытого обожженного фосконцентрата.

Предварительную очистку от сульфатов и фтора проводили мытым обожжённым фосконцентратом (МОФК), карбонатом и метасиликатом натрия при их массовом соотношении 1,4:1. Более концентрированные растворы кислоты получали упарной обесфторенной и обессульфаченной кислоты. Анализ кислоты, промежуточных и конечных продуктов проводили известными методами химического анализа [4].

Для получения полифосфатов натрия полученные растворы после отделения выпавших осадков использовали для выделения солей ортофосфатов натрия путем выпарки до влажного состояния и последующей сушки. По второму варианту очищенных растворы упаривали до содержания 60-65% натрийфосфата и при охлаждении до температуры 25-30°C отделяли кристаллы фосфатов натрия, которые сушили.

В таблице 1 приведены результаты дегидратации гидрофосфата натрия в зависимости от температуры при продолжительности процесса 2 часа, а в таблице 2 влияние продолжительности дегидратации при температуре 400°C.

**Таблица 1**

**Влияние температуры дегидратации гидрофосфата натрия на химический состав при продолжительности процесса 2 часа**

№	t, °C	Химический состав продукта, масс. %										Степень полимер, %
		Na <sub>2</sub> O	P <sub>2</sub> O <sub>5</sub> общ.	P <sub>2</sub> O <sub>5</sub> водн.	P <sub>2</sub> O <sub>5</sub> поли.	CaO	MgO	Al <sub>2</sub> O <sub>3</sub>	Fe <sub>2</sub> O <sub>3</sub>	SO <sub>3</sub>	F	
1	200	41,31	47,54	47,35	0,19	0,203	1,711	0,087	0,03	1,19	0,004	0,4
2	250	42,75	49,19	18,83	30,36	0,211	1,776	0,090	0,03	1,24	0,003	61,73
3	300	43,92	50,54	3,49	47,05	0,216	1,819	0,092	0,031	1,26	0,002	93,10
4	350	44,20	50,86	2,84	48,02	0,217	1,832	0,091	0,031	1,27	0,002	94,40

5	400	44,47	51,17	2,34	48,83	0,218	1,842	0,094	0,032	1,28	0,001	95,42
6	450	44,54	51,22	2,07	49,15	0,218	1,844	0,094	0,032	1,28	0,001	95,96
7	500	44,59	51,26	1,80	49,46	0,219	1,845	0,094	0,032	1,28	0,001	96,48
8	550	44,61	51,28	1,78	49,50	0,219	1,846	0,095	0,033	1,28	сл	96,52

Повышение температуры дегидратации с 200°C до 550°C способствует повышению в продукте содержания общей формы P<sub>2</sub>O<sub>5</sub> с 47,54% до 51,28% (табл. 1). При этом содержание полиформы P<sub>2</sub>O<sub>5</sub> составляет 30,36-49,50%, а водорастворимая форма P<sub>2</sub>O<sub>5</sub> изменяется с 1,78% до 47,35%. Степень полимеризации достигает 96,5%.

При дегидратации гидрофосфата натрия при температуре 400°C и продолжительности процесса от 0,5 до 2,5 часов общая форма P<sub>2</sub>O<sub>5</sub> составляет 49,00-51,32%, а степень полимеризации - 91,67-95,53%.

Из неё видно, что для получения максимального содержания полиформы P<sub>2</sub>O<sub>5</sub> необходима температура 400°C и более. Повышение температуры до 500 и 600°C не оказывает существенного влияния на изменение форм P<sub>2</sub>O<sub>5</sub> продуктов дегидратации.

Таблица 2

*Влияние продолжительности процесса дегидратации гидрофосфата натрия на химический состав при температуре 400°C*

№	$\tau$ , час	Химический состав продукта, масс. %										Степень полимер, %
		Na <sub>2</sub> O	P <sub>2</sub> O <sub>5</sub> общ.	P <sub>2</sub> O <sub>5</sub> водн.	P <sub>2</sub> O <sub>5</sub> поли.	CaO	MgO	Al <sub>2</sub> O <sub>3</sub>	Fe <sub>2</sub> O <sub>3</sub>	SO <sub>3</sub>	F	
1	0,5	42,59	49,00	4,08	44,92	0,208	1,764	0,09	0,029	1,25	0,005	91,67
2	1,0	44,05	50,68	3,17	47,51	0,216	1,824	0,093	0,031	1,26	0,003	93,75
3	1,5	44,39	51,07	3,07	48,00	0,217	1,838	0,094	0,032	1,27	0,002	93,99
4	2,0	44,47	51,17	2,34	48,83	0,218	1,842	0,094	0,032	1,28	0,001	95,42
5	2,5	44,61	51,32	22,29	49,03	0,219	1,847	0,094	0,032	1,28	0,001	95,53

Полученные результаты указывают на то, что для получения полифосфатов натрия и их смеси с приемлемой степенью полимеризации необходимо процесс дегидратации приводить при температуре не менее 400°C и продолжительности прокалки 2 часа.

**СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:**

1. Sidney J, Omelon and Marc D. Grynpas. Relationships between Polyphosphate Chemistry, Biochemistry and Apatite Biomineratization. Toronto, Canada. Chem. Rev. 2008, 108, – P, 4694-4715.
2. Banach M., Makara A. Tripolifosforan sodu: rozwiązańe dla środków czystości, Czasopismo Techniczne Chemia. 2010. 107(10): 3-18.
3. Marcin B., Katarzyna G., Jolanta P. Two-stage method of obtaining high bulk density sodium tripolyphosphate: Design and mechanism of process chemical engineering research and design. (2013). <http://dx.doi.org/10.1016/j.cherd.2013.10.016>.
4. Хужамбердиев Ш.М., Арифджанова К.С., Мирзакулов Х.Ч. Исследование процесса получения растворов и солей натрия, пригодных для получения полифосфатов // Химия и химическая технология. – Ташкент, 2018. – № 3. – С. 18-21.

# TABIIY VA TEXNIK FANLAR

## BUYRAK FUNKSIYASINING BUZILISHI

**Qahhorova Zaytuna Abdug`ulom qizi**

*Termiz shaxar Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi stomatologiya yo'nalishi talabasi*

**Namozova Zuhra Rustam qizi**

*Termiz shaxar Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi stomatologiya yo'nalishi talabasi*

**Navro`zova Zarina Alim qizi**

*Termiz shaxar Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi stomatologiya yo'nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** Siydk va tanosil a'zolar tizimi odamda tuzilishi va vazifasi hilma-hil, lekin rivojlanishi nuqtai nazardan bir biriga bog'liq ikki siydk ajratish va tanosil a'zolar tizimini o'z ichiga oladi. Siydk a'zolari tizimi qanday siydk ajratuvchi (buyrak) siydikni buyrakdan olib ketuvchi (buyrak kosalar, buyrak jomi, siydk nayi) siydikni to'plovchi (qovuq) va organizmdan chiqarib yuboruvchi (siydk chiqaruv nayidan iborat)

**Kalit so'zlari:** Hefroz, glomerulonefrit, buyrak tosh kasalligi, buyrak o'smalari.

Ushbu maqolada eng ko'p uchrayotgan kasalliklaridan biri. Buyrakda o'zgarishlar, insonlarning etiborsizligi oqibatida kelib chiqadigan og'ir patologiyasi xaqida qisqacha va aniq ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Buyrak funksiyasining buzilishi ajratayotgan siydk chiqarish ritmining o'zgarishlari bilan kelib chiqadi va boshlang'ich kasalliklarning klinik belgilari va patologiyasi rivojlanishni boshlaydi.. Buyrak kasalliklarida eng avvalo siydk ajratish ritmida o'zgarishlar paydo bo'ladi. Mo'tadil xolatda sutka davomida ajraluvchi siydk miqdori 1,5-2,5 litrni tashkil etadi.

Patologik holatlarda ko'pincha diurez miqdori va tarkibi o'zgarishini boshlaydi. Diurezning ko'payishi pomuriya deyiladi. Pomuliya ko'p hollarda modda almashinuvi buzilganda qandli diabetda.gipertoniya kasalligida buyrak yallig'lanishida uchraydi. Siydk ajralishining kamayishiga amituriya deyilib, gipotoniyyada isitmada tosh kasalligida, jarrohlik aralashuvidan keyin qattiq og'riqda uchraydi.

Nefroz deb buyrakning diktrofik o'zgarishlariga aytildi. Bunda buyraklar orqali ko'p miqdorda siydk va oqsillar ajraladi. Hloridlar va aksincha ushlanib qoladi. Nekrotik nefrozda anuri, azotemus bo'lib qon bosimi ko'tarilishi mumkin. Buyrak kasalliklari orasida glomerulonefrit muxim axamiyatga ega bo'lib u o'tkir va surunkali keladigan kasallik hisoblanadi. Kasallikning kelib chiqishida streptokol asosiy rol o'ynaydi. Glomeruloneftir ko'proq pnevmoniya, angina, skarlatina kabi kasalliklar va haddan tashqari sovuq qotish oqibatida boshlanadi. Rasallikda buyraklarda qon aylanishi buziladi. Bunda buyrak faoliyati, buziladi proteinuriya, gemoturiya, gepertoniya kuzatiladi.Surunkali turida jarayon

asta sekin boshlanib, koptokchalarda atrofiya rivojlanib, ular o'rnida chandiqlar paydo bo'ladi. Natijada buyrak po'stlog'ida botiqchalar hosil bo'lib buyrak kichrayib ikkilamchi bujmaygan buyrak rivojlanadi. Bundan tashqari yiringli va uchaqli nefrit turlari ham bo'ladi.

Nefretlar ko'pincha yuqumli kasalliklarda yiringli jarayonlarda rivojlanib gemoturiya, proteinuriya bilan kechadi. Buyrak tosh kasalligi toshning jomchasida, kosachalarida, siyidik yo'lida va qovuqda paydo bo'lishi bilan tariflanadi. Kasallik avjlanish davrlari bilan bitgalikda surunkali kechadi. Kasallik sabablarida mineral moddalarning buzilishi, vitaminlar yetishmovchiligi, buyrak yallig'lanishi kiradi. Tosh bir yoki ikkala buyrakda hosil bo'lishi mumkin. Tosh kattalashib siyidik yo'lini berkitib, siyishni qiyinlashtiradi. Natijada, pielonefrit va gidronefroz rivojlanadi. Buyraklar perenhimosida atrafiya rivojlanib (tosh ikkala buyrakda bo'lsa) buyraklar funksiyasining yetishmovchiligi kuzatiladi. Kasallik qattiq og'riq, gemoturiya, oligauriya va onuriya paydo bo'lishi bilan harakterlanadi. Buyrak o'smalarida nekroz va qon oqimlari kuzatiladi shuningdek o'smalar buyrak tomirlarining qon oqimini buzadi. Natijada o'smalar bag'rida bo'shliqlar paydo bo'ladi.

Buyrak o'smasida bemorlarning umumiyligi axvoli yomonlashib, ishtaha yo'qoladi. Usma kasalligida inson asta sekin ozadi. Harorati biroz ko'tariladi va qon bosimi oshadi. Og'riqsiz gemoturiya kuzatiladi. Keyinchalik belda va buyrakda og'riq paydo bo'ladi.

Surxondaryo viloyatida uchraydigan buyrak kasalliklari tumanlar kesimida taxlili.

- Termiz shahar
- Termiz tumani
- Angor tumani

Klinik ko'rsatkichlar P-100. Ko'proq profilaktikasi.

Buyrak patologik jarayonlarini vaqtidan oldinroq aniqlash yo'llaridan yana biri buyrak faoliyati buzulganda filtratsiya reabrорbiya va sekritsiya ham birgalikda buziladi. Bu buzilishlarni aniqlash uchun eng soda usullardan biri bu siyidik zichligini vs miqdorini 3 soatlik qisimlarda aniqlashga asoslangan. Sutka davomida sog'lom buyraklar orqali qabul qilingan suvning 80% ajralib chiqariladi. Ayrim qismlarda zich moddalarning miqdori, zichligi 1008-1035 gacha o'zgatib turadi. Shuningdek siyidikni kunduzi va kechasi ajralishini –deurezni tekshirishni ham ahamiyati katta. Sog'lom odamlarda diurez kechasi sezilarli kamayadi. Siyidikning konsentratsiyasi oshadi. Buyrakning faoliyati yetishmagan bemorlarda kechasidan diurez kunduzidan farq qilmaydi, bazi hollarda kuchayadi. Bunda siyidikning zichligi biroz o'zgaradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. "Terapiya ichki kasalliklar"
2. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
3. www.tabobat.uz

## UZUMNING “PUSHTI TOYIFI” NAVINING QALAMCHALARINI SAQLASH UCHUN TAYYORLASH CHORA-TADBIRLARI

**Botirova Durdigul Rustam qizi**

*Guliston Davlat Universiteti talabasi*

**Annotatsiya:** *Bugungi kunda uzumga bo‘lgan talab ortib borganligi sababli, uning turli navlari ko‘paytirilib kelinadi. Shulardan aholi talabiga javob beradigan navlardan biri “Pushti toyifi” hisoblanib, odatda qalamchalaridan ko‘paytiriladi. Agar biz tok kesish vaqtida ularni to‘g‘ri tayyorlab, saqlash uchun zarur sharoitni yaratib bera olsak, uzumning “Pushti toyifi” navini yanada ko‘proq ko‘paytirish imkoniyatiga ega bo‘lamiz.*

**Kalit so‘zlar:** *Pushti toyifi, qalamcha, tokzor, g‘ujum, uzum bosh, bo‘g‘im oralig‘i, xandaq, xinozol eritmasi, novda.*

Mamlakatimizda qishloq xo‘jaligining rivojlangan tarmoqlaridan biri uzumchilik bo‘lib, aholimizning deyarli ko‘pchiligi uzum yetishtirish va uni qayta ishslash bilan shug‘ullanadi. Bundan asosiy maqsad uzumchilikni yanada rivojlantirish, aholini sifatli mahsulot bilan ta‘minlash shu bilan birgalikda iqtisodiy samaradorlikni yanada oshirishdir. Bularni amalga oshirish uchun esa uzumning ko‘paytirish usullarini yaxshi bilib olishimiz zarur. Chunki, uzumning hosildorligi, o‘tkazilayotgan qalamchaning sifatiga chambarchas bog‘liqdir.

“Pushti toyifi” navining qalamchalari ko‘pincha hosilga kirgan tokzorlardan tayyorlanadi. Buning uchun birinchi navbatda suv bilan yaxshi ta‘minlangan, unumdor, tekis joylar tanlanib olinib, tuprog‘iga ishlov beriladi, o‘g‘itlanadi, ko‘chatlarning qator va tup oralari 2,0-2,5 m oraliqda ekiladi. So‘ng ular tik simbag‘azlarda o‘stirilib, ularga ko‘p zangli yelpig‘ichsimon shakl beriladi, novdalari esa kuzda 3-5 kurtak qoldirib kesiladi. Shunda har bir tok tupida o‘rtacha 140-150 ta kurtak qoldirilishi lozim. Barcha parvarish ishlari yuqori darajada amalga oshiriladi. Natijada, bunday tokzorlarning bir gektar maydonidan o‘rtacha 140-150 ming tagacha qalamchalar tayyorlash mumkun.

“Pushti toyifi” kechpishar nav hisoblanib, tupi katta, sho‘rga va sovuqqa chidamli bo‘lib, uzum boshlari keng konussimon. Mevasi pishib yetilganda pushti rangli, yeganda karsillaydigan bo‘ladi. Ta’mi jihatdan biroz taxirroq, mevasining o‘rtacha vazni 390 gr, g‘ujumlari yirik, uzunchoq silindrsimon, eti go‘shtli sershira. Mevasi pishgan vaqtidagi ta’m bahosi 8,8 ball, kurtak yozilishidan mevasi pishguncha bo‘lgan davr 155 kundan iborat.

“Pushti toyifi” navi qalamchalari asosan kuzda tok kesish vaqtida ya’ni oktabr-noyabr o‘rtalarida, ba’zan bahorda tok ko‘milmaydigan janubiy rayonlarda shira harakati boshlanmasdan oldin, kurtaklar uyg‘onmasdan oldin ham tayyorlanadi. “Pushti toyifi” navi qalamchalarining uzunligi odatda 50-60 sm, yo‘g‘onligi esa 6-13 mm, bo‘g‘im oralig‘i esa 5-15 sm bo‘lishi kerak. Kesib tayyorlangan qalamchalar jingalak, bachki novdalardan tozalanadi va yuqori uchini bir tomonga, pastki uchini esa boshqa tomonga qilib 100-200 tadan ikki tomonidan bog‘lanadi. Qora qalam bilan navning nomi va qalamchalarning soni yozilgan yorliq har bir bog‘lamga bog‘lab qo‘yiladi. Tayyor bo‘lgan qalamchalarni ochiqda

goldirmaslik kerak, sababi ularni namligi yo‘qolib, ekilgandam so‘ng tutmasligi mumkin. Bunday holatni oldini olish uchun esa tayyorlangan qalamchalarni bahorda ekilguncha shamoldan to‘silgan, sizot suvlari ko‘pi bilan 1,5-2 m yuzada bo‘lgan va nisbatan balandroq joylardan kovlangan maxsus chuqurliklar ya’ni xandaqlarda saqlashimiz lozim. Xandaqlarning chuqurligi 65-70 sm, eni 120-150 sm, bo‘yi qalamchalar soniga qarab belgilanadi, masalan 1 kv m joyga 2,5 ming dona qalamcha ketadi. Qalamchalarni saqlashga qo‘yishdan oldin tayyorlangan xandaqlarga suv quyilib olinadi va suv shimilib ketilishi kutiladi, so‘ngra qalamchalarni bog‘-bog‘ qilib, navaiga qarab, vertikal ravishda pastki qismini yuqoriga qaratilgan holda joylashtirib chiqiladi. Qalamchalar bog‘ining bo‘sh joylariga yumshoq tuproq sepiladi. Qalamchalar joylashtirilib chiqilgan chuqurlarga yomg‘ir tomchilari va erigan muzlar kirmasligi uchun atrofiga suv oqib ketishi uchun ariqlar kovlab chiqiladi.

“Pushti toyifi” qalamchalarini xandaqlarga joylashtirishdan oldin, zamburug‘ kasalliklariga chalinishini oldini olish uchun 5 soat davomida 0,5% li xinozol eritmasida saqlash lozim. Qalamchalar qancha uzoq saqlansa tarkibidagi oziq moddalar shuncha kamayib boradi, natijada ular bahorda sust rivojlanishi, ildiz chiqarish qobiliyati pasayib ketishi mumkin. Bu holat kuzatilmasligi uchun harorat 4-6<sup>0</sup> C dan oshmasligi, namlik darajasi mo‘tadil bo‘lishi kerak hamda ustiga 35-40 sm qalinlikdagi tiproq solinadi. Agar qalamchalarni maxsus sovitgichlarda saqlaydigan bo‘lsak, harorat 0-4<sup>0</sup> C, namlik 80-85% atrofida bo‘lishi talab qilinadi.

Bahor kelganda “Pushti toyifi” navining qalamchalarini sifatini tekshirib olamiz ya’ni sog‘lomlarini, yaxshi saqlanganlarini ekish uchun saralaymiz. Shuningdek, qalamchalarni uzoq joylarga tashishda ularni nam poxol yoki polietilen plyo‘nkaga o‘raymiz.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlab o‘tish joizki, uzumning “Pushti toyifi” navining uzum boshlari keng konussimon, karsillaydigan, g‘ujumi yirik, eti sershira hamda sovuqqa va sho‘rga chidamli bo‘lganligi uchun unga bo‘lgan talab yuqoridir. Shuning uchun ham uni tuli yo‘llar bilan ko‘paytirib kelamiz. Shulardan biri keng tarqalgan vegetativ yo‘l bilan ya’ni qalamchalaridan ko‘paytirishdir. Bunda qalamchalar kuzda bir yillik novdalar pishgandan so‘ng, tokni kesish vaqtida, uzunligi 50-60 sm, yo‘g‘onligi esa 6-13 mm, bo‘g‘im oralig‘i 5-15 sm qilib tayyorlab olinadi. Faqat hosil bergen, novdlargina olinadi, hosil bermagan novdalardan qalamcha tayyorlab bo‘lmaydi. Tayyor bo‘lgan qalamchalarni qishda saqlash uchun balandligi 65-70 sm, eni 120-150 sm li xandaqlarga joylashtiramiz va ustidan 35-40 sm qalinlikdagi tuproq tortiladi, natijada ular bahorgacha yaxshi saqlanadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Bog‘dorchilik. Yunusov.R. Toshkent 2016. 127-129-betlar.
2. Uzumchilik. Sh.Temurov. ‘O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi’ davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent 2002, 69-70-betlar.

3. O'zbekiston Respublikasi hududida ekish uchun tavsiya etilgan meva-uzum navlarining katalogi. Sulaymonov.B.A, Saimnazarov.Yu.B. Toshkent 2016. 49-bet.

## UZUMNING “NIMRANG” NAVINI O‘SUV DAVRIDA EGATLAB SUG‘ORISHNING QO‘LLANILISHI

**Botirova Durdigul Rustam qizi**  
Guliston Davlat Universiteti talabasi

**Annotatsiya:** Bugungi kunda uzumni sug‘orishda turli xil usullardan foydalanib kelinmoqda va ularning samaradorligi turlichadir. Shulardan biri uzumning “Nimrang” navini egatlab sug‘orish bo‘lib, u oddiyligi va kamxarajatliligi bilan boshqa sug‘orish usullaridan ajralib turadi. Shu bilan birgalikda O‘zbekistonda tokzorlarni egatlab sug‘orish keng tarqalgan.

**Kalit so‘zlar:** Nimrang, sug‘orish tizimi, egatlab sug‘orish, tuproq namligi, suv sig‘imi, egat, g‘o‘ra, g‘ujum, shingil, o‘suv davri, yosh tokzor,

Uzumga bo‘lgan talab yil sayin ortib bormoqda, shuning uchun uzumning o‘suv davrida yaxshi parvarish qilish, to‘g‘ri agrotexnik tadbirlarni qo‘llash orqali uzum hosilini yanada oshirish imkonibor. Bulardan biri qulay, uzum naviga mos sug‘orish tizimini qo‘llay bilishdir. Chunki, barcha tirik organizmlar kabi uzum uchun ham suv muhim rol o‘ynaydi. Yetarli miqdorda suv bilan ta’minlangan uzum tez o‘sib rivojlanadi, novdalari cho‘ziladi, barglar yoyiladi, mevalar kattalashadi va mazzali bo‘ladi. Shuningdek, uzum yetishtirish davrida, uzumning naviga, yerning mexanik tarkibiga qarab, turli sug‘orish usullarni qo‘llashimiz mumkun. Ulardan biri O‘zbekistonda keng tarqalagan egatlab sug‘orishdir.

Mamlakatimizda yog‘ingarchilik hisobiga to‘plangan tuproq namligi uzumning “Nimrang” navini yaxshi o‘sib hosil berishi uchun yetarli hisoblanmaydi. Shunday ekan, tuproq namligini uzumning o‘suv davrida ma’lum vaqtlarida egatlab sug‘orish orqali tartibga solinadi. Biroq yillik yog‘in miqdori 450-500 mm dan kam bo‘lmagan tog‘li rayonlarda “Nimrang” navini 1-2 marta sug‘orish orqali ham o‘sirish mumkun. Biz sug‘orishdan faqatgina tokni nam bilan ta’minalash uchun emas, balki berilayotgan o‘g‘itlarning ta’sirchanligini oshirish, tok tuplarini bahorgi sovuqlardan asrash, tuproq sho‘rini yuvish uchun ham foydalanamiz. Tokning yaxshi o‘sishi va hosil qilishi uchun tuproqning namligi dala suv sig‘imidan olib qaralganda 70% dan kam bo‘lmasligi eng qulaydir.

Xo‘raki uzum navi hisoblangan “Nimrang” Tojikistonning mahalliy navi bo‘lib, uzum shingillari katta, g‘ujumi yirik, sershira va o‘rtacha vazni 348 gr. Mevasining pishgan vaqtidagi ta’m bahosi 6,5 ball, kurtak yozilishidan mevasi pishguncha bo‘lgan davr 162 kunni tashkil etadi, hosildorligi 134 setner/gektar, eng yuqori hosildorligi 192 setner/gektarni tashkil etadi.

“Nimrang” navini egatlab sug‘orishda birinchi navbatda egatlar olinadi, bunda PRVN-2,5 va PRVM-3 moslashtirilgan mashinalaridan foydalaniadi. Tok qator orasining

kengligiga qarab, egatlar soni 1-3 ta bo‘lishi mumkun. Yosh tokzorlarda egatlar tupining ikki tomonidan, hosilga kirgan tokzorlarda unga qo‘sishimcha qilib, qator orasining o‘rtasidan tok tupidan 0,5 m qochirib, 15-25 sm chuqurlikda olinadi. Tuproqning turini, yerning qiyaligini inobatga olgan holda, egat chuqurligi va uzunligi hisobga olinadi. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, tekis yerlarda egatlar chuqurroq va kalta 100-150 m atrofida, mexanik tarkibi nisbatan og‘ir yerlarda esa yuzaroq ya’ni 15-20 sm va uzunroq 200-300 m qilib olinadi. Yana, egatlab sug‘orishda e’tiborli tomoni tok qatorlariga ko‘ndalang qilib o‘qariqlar olishdir. So‘ng suvni egatlar bo‘ylab bir me’yorda oqiziladi. Lekin, egatlar boshidagi tuproq yuvilib ketmasligi uchun u yerga chim bosiladi yoki o‘g‘itdan bo‘shagan qog‘oz parchalari, polietilen plyonkalardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Suv o‘tkazuvchanligi nisbatan yuqori bo‘lgan tuproqlarda egatlar maxsus egat olgichlar orqali olinib, bir yo‘la uning tubi va devorlari zichlashtirilib ketiladi. Natijada, suvning tuproqqa singishi ancha sekinlashadi va buning hisobiga egatlar uzunligini orttirish imkoniyati bo‘ladi.

“Nimrang” navi uchun egatlab sug‘orish bir muncha oddiy hamda kamxarajatdir, ammo bunda suvning ko‘p talab qilinishi va mexnat sarfining yuqoriligini ham hisobga olish lozim. Yosh tokzorlarni o‘suv davrida 9-10 martagacha, hosilga kirgan tokzorlar esa odatda aprelda, gullahdan 5-10 kun oldin, gullahdan keyin, g‘o‘ralar jadal rivojlanayotgan davrda ya’ni iyul oyida ham sug‘oriladi. Lekin, hosil terishdan 15-20 kun oldin sug‘orish to‘xtatilishi lozim, aks holda g‘ujumlar liqildoq bo‘lib sifati buzilishi mumkun. Oxirgi sug‘orish esa, tok qismlaridagi namlikni saqlash va tok tuplarini qishga ko‘mishni qulaylashtirish uchun toklarni ko‘mishdan oldin noyabr oyida sug‘oriladi. Suvga bo‘lgan talab rivojlanishning turli davrlarida turlicha bo‘lganligi sababli, vegetatsiyaning bиринчи davrida tuproq namligini dala suv sig‘imidan 70-80%, ikkinchi davrida esa 60-65% darajasida saqlab turish kerak. Agar kerakli miqdordagi suv bilan ta’minlay olmasak, novdalarning o‘sish va rivojlanishi sekinlashadi, bo‘g‘imlar oralig‘i kalta bo‘lib qoladi, barg qoplamlarining kamayishiga olib keladi, uzoq muddat suvsiz qolganda esa novdalar uchi qurib qolishi ham mumkun.

Uzumning “Nimrang” navini egatlab sug‘orish natijasida tuproqni chuqur qatlamlarigacha namiqtirish mumkun. Hamda tuproq strukturasi bostirib sug‘orishga qaraganda yaxshi saqlanib qoladi va tuproq kuchli zichlashmaydi. Egatlab sug‘orish tuproqda kechadigan mikrobiologik jarayonlarga ijobiliy ta’sir etadi hamda egatlar oralig‘i doim yumshoq holda bo‘lib, namlikni yaxshi saqlaydi. Ammo egatning boshi va oxirida tuproqni bir xil chuqurlikda namlash imkoniyatining yo‘qligi, suvchining ish unumdonorligi pastligi sug‘orish usulining kamchiliklariga kiradi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlab o‘tish joizki, egatlab sug‘orish eng takomillashgan usul bo‘lib, nishabligi 0,001-0,05 gacha bo‘lgan yerlarda yetishtirilayotgan uzumning “Nimrang” navi uchun asosiy sug‘orish usullaridan biridir. Bu usulni qo‘llash orqali tuproqning zichlashish holatini kamaytiramiz, tuproqni chuqur qatlamlarigacha suv bilan ta’minlay olamiz, hamda nisbatan oddiy va kamxarajatliligiga qaramasdan foydasi

sezilarlidir. Biroq, tuproqning barcha qismini bir xil miqdordagi suv bilan ta'minlay olmasligi, ko‘p miqdorda suv talab qilishi noqulayliklarni keltirib chiqarishi mumkun.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Uzumchilik. Sh.Temurov. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent 2002, 148-149-betlar.
2. Ekinlarni sug‘orish asoslari. Z.M.Artukmetov, H.Sh.Sheraliyev. Toshkent 2007, 194-196-betlar.
3. Uzum yetishtirish va mayiz quritishning zamonaviy texnologiyasi. R.M.Abdullayev, M.M.Mirzayev, U.Ya. Nabihev. Toshkent-2011. 29-bet.
4. O‘zbekiston Respublikasi hududida ekish uchun tavsiya etilgan meva-uzum navlarining katalogi. Sulaymonov.B.A, Saimnazarov.Yu.B. Toshkent 2016. 50-bet.

**IBN SINO ASARLARIDA KASALLIKLAR PROFILAKTIKASI**

**Gulira'no Musliddinovna Qahorova**  
*talaba Buxoro davlat tibbiyot instituti Buxoro*

**Jonibek Rashitovich Raximov**  
*o`qituvchi, Buxoro davlat universiteti Buxoro*

**Mehrinisho Sodiq qizi Muhammedova**  
*o`qituvchi, Vobkent tuman 8- maktab Buxoro*

**Ilhom Ikromovich Jo`rayev**  
*dotsent, Navoiy davlat konchilik instituti Navoiy*

**Annotatsiya:** *Ibn Sino asarlarida kasalliklarni davolash ularning oldini olish usullari keltirilgan. Bu ma`lumotlarga 1000 yildan oshgan bo`lsada hozirgi kunga qadar o`z ahamiyatini yo`qotmaganligi haqida so`z boradi. Bugungi kunda kasalliklarni davolashdan ko`ra ularni erta aniqlab oldini olish natijasi Ibn Sino ta`limotiga asoslanib ishlar olib borilayotgani bayon etiladi.*

**Kalit so`zlar:** 1000 yil, "Tib qonunlari", ensiklopedist, unsur, mijoz, xilt, a'zo, ruh, quvvat, uyqu bedorlik, chang, g'ubor, shamol, qo'rquv, quvonch, g'am-anduh, alimentar, parhez, me`da, hammom, ekologiya.

Fan texnika texnologiyalarning rivojlanishi bilan bir qatorda hozirgi kunda jadal rivojlanish tibbiyat sohasida ham yaqqol ko`zga tashlanmoqda. Keyingi yillarda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar natijasida kasalliklar turlari va ularning soni jadallik bilan ortib borayotganligi kuzatilmoxda. Bugungi kunda kasalliklarni davolashdan ko`ra ularni erta aniqlab oldini olish natijasida katta yutuqlarga erishildi.

Abu Ali ibn Sino ilm taraqqiyotiga beqiyos hissa qo'shgan, yurtimiz tuprog'idan yetishib chiqqan buyuk allomalarimizdan biridir. Ibn Sino haqiqiy ensiklopedist olim sifatida o'z davridagi fanlarning deyarli hammasi bilan muvaffaqiyatli ravishda shug'ullangan va ularga oid asarlar yaratgan. Turli manbalarda uning 450 dan ortiq asarlari qayd etilgan bo'lsa ham, zamonlar o'tishi bilan ularning ko'pi yo'qolib ketgan va bizgacha 242 ta asari yetib kelgan. Ular falsafa, ilohiyot, tasavvuf, tabobat, mantiq, psixologiya, botanika, astrologiya, etika, adabiyot, matematika, musiqa, kimyo sohalarida yozilgan. Tibbiyat olamida ibn Sinoning tabarruk nomi Gippokrat, Galen kabi daholar bilan bir qatorda turadi. Uning "Kitob al-Qonun fit-tib" ("Tib qonunlari") asari Sharq va G'arb mamlakatlari tibbiyoti rivojiga ulkan hissa qo'shgan asar hisoblanadi hamda bir necha asrlar mobaynida tibbiy darslik sifatida foydalanib kelingan. "Tib qonunlari" besh kitobdan iborat va ular quyidagilar: Birinchi kitob-tabobatning nazariy asoslari hamda amaliy tabobatning umumiyl masalalari haqida ma'lumot beradi. Tib ilmining tarkibiy qismlari quyidagilar:

1) Ilmiy (nazariy) qism. 2) Amaliy qism. Ilmiy qism ham oz navbatida 2 xil manbadan iborat. Bular: a) Tabiiy manbalarga unsur, mijoz, xilt, a'zo, ruh, quvvat kiradi. b) Zaruriy manbalarga esa havo, istemol mahsulotlari, uyqu va bedorlik, harakat va harakatsizlik,

bo'shalish va bo'shalmaslik, keyingi manba esa kasallikning tashqi manbalari, alomatlari va sabablari kiradi.

Amaliy qism ham òz navbatida ikki yo'nalishga bo'linadi:

Birinchisi-sog'lizni saqlash, kasalliklarning oldini olish (profilaktika) bo'lsa, ikkinchi yo'nalishga bemorlarni davolash masalari turadi.

Ibn Sino ekologiya faniga asos solgan olim deyishga to'la haqlimiz,chunki u Ernest Gekkeldan (hozirda hamma fanda "ekologiya fanining otasi" deb biladi)qariyb 1000 yil avval bu fanga oid ma'lumotlarni keltirib o'tgan. Atrof-muhitning deyarli barcha omillari ularga insonning,jonzotlarning ta'siri va nihoyat bu omillarning inson va jonzotlarga aks ta'siri to'g'risidagi mashhur iboralarni yozib qoldirgan."Agar atrof-muhitda chang va g'ubor bo'limganda inson 1000yil yashagan bo'lar edi"yoki "Havo toki muvozanatlashgan va toza bo'lsa unga begona qo'shimchalar qo'shilmasa,u salomatlik garovi bo'ladi,aks holda turli kasalliklarga sabab bo'ladi"kabi ekologiyaga oid fikrlarning muallifi aynan Abu Ali ibn Sinodir.Sharq tabobati ilmining asoschilari bo'l mish

Ar-Roziy, Ibn Sino, Ismoil Jurjoni va boshqalar inson xastaliklarini sabablarining quyidagi 3omil bilan bog'liqligini asoslab berdilar:

1. Tashqi faktorlar: Yashash joyining jug'rofiy muhiti,ya'ni ayni xastalangan bemorlarning yashash joyi mintaqasi,iqlimi,ob-havosi,esadigan shamol yo'nalishi,ichimlik suvlari shu inson yashayotgan uyning qaysi tomonga qarab qurilgani,yil fasllari,quyoshning osmon burchlaridagi o'rni,oyning boshi, oxiri, oyning to'lishi va boshqalar 2. Ichki faktorlar: Kishining emotsional holatlari:qo'rquv, quvonch, hayajon, bezovtalanish, alam, g'am-anduh, g'azab va boshqalar. 3. Ovqatlanish yoki alimentar faktorlar:Bu omillar oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish, ularni saqlash, ovqatlarni pishirish uslublari,ovqatlanish madaniyati va odobi,yilning fasli va inson mijozini hisobga olgan holda ovqatlanish kabilardir.Qolaversa, ibn Sino kasalliklarni oldini olish va davolashda bemorlarga parhez qilish kerakligi,badantarbiya mashg'ilulotlari bilan shug'ullanishni hamda haftada bir necha marotaba quruq,giyohli hammom qabul qilish kerakligini yozib o'tgan.Tashqi,ichki hamda alimentar faktorlarning inson organizmiga mos kelmasligi natijasida shu inson tanasida u yoki bu ko'rinishdagi xastalikni keltirib chiqaradi.Bu xastalik inson organizmida oddiy yoki murakkab,yoki bo'lmasa moddali va muddasiz mijoz buzilishi ko'rinishida kechadi.Sharq hakimlari ta'limotiga ko'ra, bemor xastalik sababini o'rganamiz,bemor tanasini yot modda va xiltlardan tozalaymiz, so'ngra davolash hamda boshqa kasalliklarni oldini olish maqsadida bemorga parhez taomlarni iste'mol qilishni buyuramiz. Ibn Sino ta'limotida parhez taomlar quyidagi to'rtta omilga qat'iy rioya qilgan holda buyurilgan:

1) Bemorning tabiiy mijoz 2) Bemorning yashash muhiti

3) Mijoz buzilishidagi sabab 4) Bemorga buyuriladigan taomlarning mijoz

Ibn Sino sog'lom bo'lish uchun hammom qabul qilish kerakligini aytgan.Hammom nahorda va bo'sh me'daga qabul qilinsa,gavdani quritib ozdiradi,zaiflashtirib yuboradi.agar to'yib ovqatlangandan keyin hammom qabul qilinsa,iste'mol qilingan mahsulot gavda sirtiga tortiladi hamda kishi semiradi. Hammomning ko'p foydali tomonlari borligi bilan birga zararli tomonlari ham mavjud. U zaiflashgan a'zolarga chiqindilarning quyilishini

osonlashtiradi, badanni bo'shashtiradi, asabga zarar yetkazadi, tug'ma issiqlikni tarqatadi, ishtahani pasaytiradi.Ibn Sino inson psixologiyasi,asab tizimini ham o'rganishga harakat qilgan va asab bilan bog'liq bo'lgan kasalliklarni davolash bo'yicha o'z tavsiyalarini berib o'tgan.U asablarning kelib chiqadigan joyi,tarmoqlanishi,shakli,tabiatи va anatomiyasini o'rganish kerakligini aytib,asab kasalliklarini uch guruhga a)mijoz kasalliklari; b)qurol kasalliklari hamda c)uzluksizlikning buzilishi kasalliklariga ajratadi.Asablarning zararlanishi tabiiy, sezish yoki qo'pol harakat qilganda yuzaga kelishini aytib o'tgan.Asab kasalliklarini mijozini aniqlashda ibn Sino o'sha a'zoda hayvon yog'i so'rlishini kuzatgan,Agar a'zoda yog' yaxshi so'rilsa,ho'l mijozli,agarda so'rilmasa quruq mijozli asab kasalligi deb tashxis qo'yan. Qolaversa,quruq mijozni kishilarda bunday kasalliklar to'satdan yuzaga kelishi mumkinligi ham aytilgan.Tib qonunlari kitobining 2-jildida hayvonlar,hasharotlar tufayli kelib chiqadigan kasalliklar hamda ulardan tayyorlanadigan oddiy va murakkab dorilar haqida ham yozilgan.Ibn Sino turli kasalliklarni davolash uchun bemorlarga bo'rsiq,ko'k kaptar,cho'l toshbaqasi,tipratikan,dala chumchug'i, kiyik, ohu,ilon go'shti hamda yog'i yaxshi samara berishi aytilgan.

Xulosa qilib aytganda bola dunyoga kelgan kundan boshlab, uning sog`lom o'sib rivojlanishi uchun turli tuman kasalliklarga chalinishini oldini olish kabi profilaktik chora tadbirlar oldindan amalga oshirish lozimligini ko`rsatadi. Jumladan, kasaliklarga chalingan taqdirda nafaqat bolalarda, balki katta yoshdagi kishilarda ham kimyoviy dori vositalaridan ko`ra, tabiiy o`simliklardan tayyorlangan dorivor giyohlardan foydalanish lozim.Kimyoviy usullar bilan tayyorlangan darmon-dorilarning ta'siri dorivor giyohlarnikiga nisbatan tez bo'lishi mumkin,biroq ularning jigar,buyrak,oshqozon va boshqa a'zolarimizga salbiy ta'sirini ham inobatga olish zarur.Maqсадимиз buyuk ajdodlarimizdan qolgan buyuk ilmiy merosni o'rganib,ulardan fan,tibbiyat amaliyotlarida qo'llash hamda kelajak avlodlarimizga bus-butunligicha yetkazish,yurtimizdan yetishib chiqqan buyuk allomalarning faoliyatları bilan tanishtirishdan iborat.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.Abu Ali ibn Sino Tib qonunlari 4-jild.Toshkent,1980.- 720-752 betlar
- 2.Abu Ali ibn Sino, Tib qonunlari 1-jild.Toshkent,1993.-92-114 betlar
- 3.Abu Ali ibn Sino,Tib qonunlari 2-jild Toshkent,1992.-178-207betlar
- 4.F.E.Nurboyev Ibn Sino ta'limoti Buxoro.2014.-3-56-betlar

**INTRAOPERATIVE ENDOSCOPIC CORRECTION OF  
CHOLEDOCHOLITHIASIS**

**Shamsiyev Ozod Fazliddinovich  
Sultanov Fayoz Mamasoliyevich**

*Samarkand State Medical Institute Department  
of Surgical Diseases No. 1 Samarkand, Uzbekistan*

**Relevance.** Currently, an important problem of biliary surgery is choledocholithiasis, the frequency of which in cholelithiasis (GSD) is 1035%. In recent decades, there has been an increase in the number of patients with complicated forms of cholelithiasis, which determines the relevance of choosing the optimal method for surgical treatment of cholelithiasis complicated by the pathology of the extrahepatic bile ducts. The standard in the treatment of cholecystocholedocholithiasis is a 2-stage treatment, when at the first stage retrograde endoscopic correction of the pathology of the bile ducts is performed, and the second stage is cholecystectomy. With the historically established priority of retrograde endoscopic interventions in the treatment of choledocholithiasis, there is an alternative, intraoperative antegrade endoscopic papillophincterotomy (IAEPST).

**Material and methods.** The analysis of one-stage surgical treatment of cholecystocholedocholithiasis using IAEPST in 386 patients for the period from 2016 to 2020 was carried out. In a planned manner, 281 (72.7%) patients were operated on, in an emergency - 105 (27.3%) patients. The age of the patients ranged from 24 to 87 years, of which 330(85.5%) women and 56 (14.5%) men. The main methods of preoperative diagnosis of complicated gallstone disease were: ultrasound of the abdominal cavity and fibroesophagogastroduodenoscopy (FEGDS) with examination of the large duodenal papilla (BSDP). All patients underwent intraoperative cholangiography (IOC) as the final diagnostic stage to determine the indications for transpapillary interventions.

**Results.** The laparoscopic approach was used in 362 (92.9%) patients, the minilaparotomic approach was used in 4 (1.0%), the traditional laparotomic approach was used in 20 (5.2%) patients. In the group of planned patients, IAEPST with calculus removal was performed in 246 (87.6%) patients. IAEPST for BSDPK stenosis was performed in 35 (12.4%) patients. In cases of multiple choledocholithiasis and uncertainty about the complete debridement of the common bile duct, surgical treatment was completed with external drainage of the common bile duct through the cystic duct stump in 9 (3.2%) patients. In the postoperative period, in 3 (1.0%) patients with external drainage of the common bile duct, control fistulography revealed choledocholithiasis, which was eliminated retrograde endoscopically. In the group of emergency patients, IAEPST and removal of calculi were performed in 89 (84.8%) patients. IAEPST for BSDPK stenosis was performed in 16 (15.2%) patients. In cases of multiplecholedocholithiasis, uncertainty in the complete sanation of the common bile duct, surgical treatment was completed with external drainage of the common bile duct through the cystic duct stump in 6 (5.7%) patients, endoprosthetics

of the common bile duct in 1 (0.95%) patient. In the postoperative period in 4 (3.8%) patients with external drainage of the common bile duct, control fistulography revealed choledocholithiasis, which was eliminated retrograde endoscopically. In 1 (0.9%) patient, the endoprosthesis was removed in the postoperative period, in combination with the retrograde endoscopic removal of calculi. Complications associated with IAE PST developed in 7 (1.8%) patients. 2 patients developed acute pancreatitis of mild and moderate severity, conservatively arrested, 4 patients had transient asymptomatic hyperamylasemia, conservative treatment, 1 patient had bleeding from a papillotomy cut, endoscopic hemostasis.

**Findings.** Intraoperative antegrade endoscopic papillophincterotomy for the correction of choledocholithiasis allows: performing one-stage treatment of cholecystocholedocholithiasis, reducing the psychoemotional load on the patient, shortening the duration of hospitalization, and reducing the number of specific complications of retrograde EPST.

**TEMIR VA UNING QOTISHMALARIGA TERMIKAVIY ISHLOV BERISH.****Joldasova Gulshexra***Nókis mamlakatlık pedagogika instituti**Magistratura bólimi " Texnologik tálım "**I- kurs magistranti*

Metall va metall emas materiallar insoniyatga juda qadim zamonlardan ma'lum bo'lib, kishilik jamiyatining ma'naviy madaniyatini rivojlanishida katta o'rinni tutadi. Shuni ham aytish za'ru'r, har qanday mashina va mexanizmning ko'pchilik tavsiloti va uzellari asosan metall va metall emas materiallardan hamda ularning qotishmalaridan tayyorlanadi. Binobarin, hozirgi kunda birorta soha yo'qki metall va metall emas materiallarni ishlatmaydigan. Ayniqsa keyingi yillarda fan - texnika rivoji munosabati bilan sanoatning barcha tarmoqlari, og'ir sanoat va mashinasozlik sanoati jadal rivojlanib borayotgani barchamizga ma'lum. Sanoatning rivoji arzon, puxta, ishlatilishi qulay bo'lgan yangidan yangi materiallarni yaratishni, shuning bilan birga materiallarning xossalari yaxshi bilgan holda ularni za'ru'rli yo'nalishda o'zgartirish texnologiyasini ishlab chiqishni taqozo qilmoqda. Mashinalarning sifati, ishonchliligi va uzoqqa chidamliligini oshirishda metall va qotishmalarining samarodor va iqtisodiy puxtaror usullari hisoblangan termik va kimyoviy - termik ishlov berish usullari katta ahamiyat kasb etadi.

Termik ishlov berish metall va qotishma sifatida hamda metall va qotishmalarga jamlangan mexanik, fizik va kimyoviy xossalari berishda tugallanmagan operatsiya sifatida tatbiq qilinadi.

Termik ishlov berish materialchunoslikning qurilish bo'lagi hisoblanadi. Materialchunoslik bo'lsa metall va qotishmalarining tarkibi, tuzilmasi va xossalari orasidagi o'zaro aloqadorlikni o'rganadigan fan hisoblanadi. Ulug' olim, metallurg P. P. Anosov 1831 -yilda birinchi bo'lib, metallarning ichki tuzilishini izlanishda mikroskopni qo'lladi va shu tariqa u po'latning xossasi nafaqat kimyoviy tarkibiga aloqador bo'lmasdan, balki uning tuzilmasiga ham aloqadorligini isbotladi. 1869 -yil metallurgi - olimi D. K. Chernov birinchi bo'lib, termik ishlov berish jarayonlarining ilmiy ma'nosini yaratdi. U po'latning xossasi ichki strukturasi bilan aniqlanishini va har bitta metall (qotishma ) kritik temperaturaga (kritik nuqtaga ) ega bo'lib, bu temperaturadan( nuqtatan ) olganda ularning strukturasi va o'zgachaligin anchagina o'zgarishin isbotladi. Metall va qotishmalarga termik va kimyoviy -termik ishlov berish fanining rivojida va puxtalashni progressiv texnologik jarayonlarda ishlab chiqishda N. S. Kumakov, A. A. Baykov, N. T. Gudtsov, S. S. Shteynberg, A. A. Bochvar, N. A. Minkevich, G. V. Kurdyumov, va boshqa olimlar katta hissa qo'shgan.[2]

Termik ishlov berish asosan - metall va qotishmalardan tayyorlangan buyumlarga, ularning tuzilishi va xususiyatlari ko'rsatilgan yo'nalishda o'zgartirish maqsadida issiqlik bilan tásir qilish yo'li bilan ishlov berish jarayoniga aytildi.

Kimyoviy -termik ishlashda - po'latning tarkibi, tuzilmasi va xususiyatlarini o'zgartirish maqsadida uning tashqi toifasiga kimyoviy va termik ishlov berish jarayoni.

Kimyoviy -termik ishlash sababidan po'lat sirtining qattiqligi, egiluvchanligi, chidamligi, korroziyaga chidamligi, kislotaga chidamligi kabi xossalari oshadi.[1]

Po'lat sekundiga 80-100 °C temperatura va tezlikda suvitilsa (buning uchun po'latni moyda suvitish za'ru'r ), austenit, ferrit bilan sementit qotishmasiga aylanadi.. Bu qotishmada ferrit va sementit zarrachalari juda mayda bo'ladi. Bu tuzilma troostit deyiladi. Troostitning qattiqligi 400-440 HB. Bunday tuzilmali po'lat biroz plastik bo'lib, birmuncha elastik va mustahkam bo'ladi. Demak, bu po'lat prujina, ressor kabi juda elastik bo'lishi taqozo etiladigan buyumlar taylorlash uchun qulayli bo'ladi. Zarba ku'chi tasirida ishlaydigan buyumlar ana shunday xossalarga ega bo'lishi za'ru'r. Tez sovish sababidan paydo bo'ladigan yuqorida ko'rib o'tilgan tuzilmalar barqaror emas, yani ular oson o'zgaradi.[2]

Yakunlab aytganda yuqorida aytilan usullarning hech biri borliq jarayonlarida tatbiqda universal emas. Ularning har qaysisi texnik taqozolar ishlov berish funktsiyasiga aloqador qo'llanadi va bir - birini to'ldirib boradi.

### **FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:**

1. F. N. Norxudjayev " Termik va kimyoviy - termik ichlov berish nazariyasi va texnologiyasi" Toshkent 2016. (5-7- sahifa).
2. O. P. Auezov, M. M. Qorlibayev " Materialtaniw va konstrukciyalıq materiallar texnologiyasi" Tashkent 2015. ( 246- sahifa ).

**LICHTENSTEIN PLASTIC FOR INGUINAL HERNIA**

**Shamsiyev Ozod Fazliddinovich  
Ikromov Shaxzod Ulugbekovich**

*Samarkand State Medical Institute Department  
of Surgical Diseases No. 1 Samarkand, Uzbekistan.*

**Relevance.** The issues of surgical treatment of inguinal hernias have not been unambiguously resolved to date. Surgeons have proposed a large number of methods of surgical interventions, however, the ideal intervention has not yet been developed. The problem is urgent and needs further development and study.

**Material and methods.** The results of treatment of 250 patients with inguinal hernias were analyzed. All operated on are men. The patients' age is from 25 to 86 years. According to the classification of Leoyd M. Nyhus (1995): direct hernias (type IIIa) were present in 111 (44.4%) patients; large oblique hernias (type IIIb) - in 74 (29.6%); recurrent hernias (type IV) were diagnosed in 65 (26%) patients. During the examination, 163 (%) patients had various comorbidities: hypertension 72 (44.2%), coronary heart disease 33 (20.2%), diabetes mellitus 21 (12.9%), bronchial asthma, pulmonary emphysema, pneumosclerosis 18 (11%), varicose veins of the lower extremities 12 (7.4%), previous CVA 7 (4.3%). Of 74 patients with recurrent and hernias, 23 had a second, 9 had a third relapse,

**Results.** During the operation, local infiltrative anesthesia was used in 174 (69.6%) patients for anesthesia, epidural anesthesia was used in 60 (24%) cases, general anesthesia occurred in 16 (6.4%) patients. During the operation, we attach particular importance to minimal tissue trauma and hemostasis. Postoperative complications: in 26 (10.4%) cases, there was a slight scrotal edema, which completely disappeared within 1014 days after the operation. The occurrence of this complication is associated with compression of the spermatic cord into the hole created in the mesh implant; in 13 (5.2%) patients who were operated on for recurrent hernias, in the postoperative period and during the control examinations, there were areas of sensitivity disturbance in the operation area, which we associate with trauma to the nerve trunks during dissection of scar tissue. Conservative treatment after surgery included antibiotic therapy, pain relief, prevention of thromboembolic complications. There were no lethal outcomes. Long-term results by telephone survey were studied in the period up to 5 years after surgery, in 102 (40.8%) patients, recurrent hernias were not observed. The patients are feeling well.

**Findings.** Thus, hernia repair according to the Liechtenstein technique using a polypropylene mesh is the operation of choice in patients with straight (type IIIa), large oblique (type IIIb), recurrent hernias (type IV). Strict adherence to the operating technique, high-quality hemostasis, full-fledged conservative therapy allows avoiding the development of complications at various stages of treatment.

**ИССЛЕДОВАНИЕ ПРОЦЕССА СОЛЯНОКИСЛОТНОГО  
ВЫЩЕЛАЧИВАНИЯ АЛЮМИНИЯ ИЗ КАОЛИНОВЫХ ГЛИН  
АНГРЕНСКОГО МЕСТОРОЖДЕНИЯ**

Султонова Н.З.

Кенжаев М.Э.

*Ташкентский химико- технологический институт*

Производство глинозема основано на использовании высококачественных бокситов. В Республике такое сырьё отсутствует, но имеются бедные алюминийсодержащие сырьевые источники. Ангренское месторождение каолиновых глин наиболее освоено для получения глинозема, пригодного для дальнейшего использования в процессе электролиза, и коагулянтов, для очистки питьевых и сточных вод. Кроме каолиновых глин имеются месторождения некондиционных бокситов, алунитовые породы и зола каменных углей.[1-3]

Глинозем в настоящее время получают в промышленности различными способами в зависимости от состава и свойств исходного сырья. Все способы получения глинозема можно подразделить на три группы: щелочные, кислотные и электротермические.

При щелочных способах глинозем извлекают из руды с помощью щелочей. При обработке алюминиевой руды щёлочью ( $\text{NaOH}$  или  $\text{Na}_2\text{CO}_3$ ) образуется растворимый в воде алюминат натрия. Раствор алюмината натрия отделяют от нерастворимых соединений железа, кремния и титана, после чего тем или иным способом разлагают, выделяя в осадок гидроокись алюминия. Её отделяют от оборотного щелочного раствора, прокаливают и получают безводный глинозем.

Для перевода глинозема из руды в алюминат натрия либо руду непосредственно обрабатывают щёлочью (гидрохимический способ), либо сначала спекают руду с солями щелочных и щелочноземельных металлов (обычно  $\text{Na}_2\text{CO}_3$ ,  $\text{CaCO}_3$ ), получая твёрдые алюминаты, которые затем выщелачивают.

При кислотных способах обработкой алюминиевой руды кислотой ( $\text{HCl}$ ,  $\text{HNO}_3$ ,  $\text{H}_2\text{SO}_4$ ) получают раствор алюминиевой соли. При этом наряду с алюминием в раствор переходит и железо. Из очищенной от алюминиевой соли выделяют глинозем.

Из перечисленных способов для условий нашей страны приемлем кислотный способ получения глинозема, так как промышленность производит в достаточном количестве азотную и серную кислоты. Кроме того, в большом количестве образуются отходы хлористого водорода. Использование соляной кислоты имеет ряд преимуществ по сравнению с другими минеральными кислотами: простота разложения сырья с переводом оксида алюминия в раствор; низкая растворимость кремнезема в соляной кислоте и возможность полного отделения твёрдого остатка без существенных потерь кислоты; селективной кристаллизации гексагидрата хлорида

алюминия; промышленно освоенная технология улавливания хлористого водорода, с получением соляной кислоты для повторного использования в процессе растворения сырья.

Показано, что солянокислотный способ может быть применён для любого вида высококремнистого сырья. Различные методы очистки кислых хлоридных растворов позволяют получать глинозем с чистотой более 99,99%. Именно по солянокислотной технологии работают опытные заводы полного цикла в Канаде и Китае.

В последнее время появились новые коррозионно-стойкие материалы и разработано долговечное оборудование на их основе, что реально позволяет создать аппаратурную схему кислотного получения глинозема.

Поэтому наши исследования были направлены на получение глинозема солянокислотным разложением каолиновых глин Ангренского месторождения.

Для исследований использовали каолин состава (масс. %):  $\text{SiO}_2$  – 54,30;  $\text{Al}_2\text{O}_3$  – 23,50;  $\text{Fe}_2\text{O}_3$  – 0,47;  $\text{K}_2\text{O}$  – 0,38;  $\text{CaO}$  – 0,30, соляную кислоту марки «х.ч.». Выщелачивание оксида алюминия из каолина проводим соляной кислотой с концентрацией 20% при механическом перемешивании, температуре 110° в течении 1-5 часов при  $T : J = 1 : 6$ .

На рисунке. 1 приведены данные влияния продолжительности процесса выщелачивания на степень извлечения алюминия из необожженного каолина Ангренского месторождения. Степень извлечения очень низкая и при продолжительности процесса 5 часов не превышает 23%.




Рис. 1 Зависимость степени извлечения алюминия ( $\eta$ ) из необожженного каолина от продолжительности процесса выщелачивания ( $\tau$ ).

Вскрытие минералов каолиновых глин во времени происходит неравномерно, так в первые два часа растворение идёт наиболее интенсивно за счёт полного растворения легко-вскрываемых в соляной кислоте минералов. Каолинит при этом растворяется незначительно.

В связи с тем, что степень извлечения алюминия в раствор при обработке исходного каолина кислотой очень мала, для её увеличения были проведены эксперименты по предварительному обжигу каолина, позволяющие перевести трудновскрываемый каолинит в кислорасторимую форму –  $\text{Al}_2\text{Si}_2\text{O}_5$ .

Для определения температуры дегидратации и связанных с ней фазовых переходов была снята дериватограмма исходного каолина Ангренского месторождения в условиях линейного нагрева до температуры 1200°C в атмосфере воздуха. На кривых ДТА наблюдаются характерные для каолиновых глин эндотермический эффект с интенсивным минимумом при 550°C и экзотермический эффект с максимумом при 955°C. Незначительный пик при 110-140°C соответствует удалению адсорбированной воды.

Скорость дегидратации существенно зависит от температуры и продолжительности обжига. По потере массы каолина судили о влиянии температуры и продолжительности обжига на скорость дегидратации. Для полного удаления конституционной воды необходима выдержка от 3 часов при 560° С до 30 минут при 700°C. Повышение нагрева до 750°C не приводит к существенному увеличению скорости дегидратации. Максимальное количество удалённой воды составляет 14,5% от общей массы каолина. Результаты экспериментов свидетельствуют, что оптимальными параметрами обжига являются T=700°C и длительность процесса не менее 30 минут.

#### СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Закиров М.З, Гончаренко А.И. «Каолин Ангренского месторождения и пути их использования» В кн.: Генезис и ресурсы каолинов и огнеупорных глин. – М.: Наука, 1990.
2. Пак А.И., Чиж Л.М. «Первичные и вторичные каолины Западного Узбекистана». В кн.: Генезис и ресурсы каолинов и огнеупорных глин. М.: Наука, 1990.
3. Ваккосов С.С., Мавлонов А.С., Мирзакулов Х.Ч. «Переработка алюминий содержащего сырья на глинозем». Сборник трудов НТК «Проблемы внедрения инновационных идей, технологий и проектов в производство». Джизак. 2010. – С. 58-59.

**OBJECTIVE ASSESSMENT OF POSTOPERATIVE RESULTS IN PATIENTS  
WITH CHRONIC PANCREATITIS**

**Shamsiyev Ozod Fazliddinovich  
Bakirov Asadullo Abduqodirovich**

*Samarkand State Medical Institute Department  
of Surgical Diseases No. 1 Samarkand, Uzbekistan*

**Relevance:** Patients with complicated forms of chronic pancreatitis (CP) require surgical intervention. One of the proven objective methods for assessing the results of surgical treatment is the assessment of the quality of life (QOL).

Содержание остальных компонентов жидкой фазы сохраняется на одном уровне, независимо от температуры и длительности процесса выщелачивания. Это указывает на то, что соединения кальция, магния, натрия, калия извлекаются практически полностью в раствор азотной кислоты с первых минут выщелачивания.

### СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Закиров М.З., Гончаренко А.И. «Каолин Ангренского месторождения и пути их использования». В кн.: Генезис и ресурсы каолинов и огнеупорных глин. – М.: Наука, 1990. – С. 89-93.
2. Пак А.И., Чиж Л.М. «Первичные и вторичные каолины Западного Узбекистана». В кн.: Генезис и ресурсы каолинов и огнеупорных глин. М.: Наука, 1990. – С. 94-96.
3. Лайнер Ю.А. «Комплексная переработка алюминийсодержащего сырья кислотными методами». М.: Наука, 1982. – 208 с.
4. М.Э. Кенжаев, М.Ш. Исламова, Х.Ч. Мирзакулов. Исследование влияния процесса прокалки на извлечение окиси алюминия из Ангренских каолинов. Universum. Технические науки: электронный научный журнал, 2017, № 4 (37). URL <http://7universum.com/ru/tech/archive/category -C. 4-40>.
5. М.Э. Кенжаев, Х.Ч. Мирзакулов, Г.Э. Меликулова, Б.Н. Каршиев. Исследование процесса выщелачивания оксида алюминия из каолиновых глин Ангренского месторождения. Сборник трудов 1X международной научно-технической конференции «Достижения, проблемы и современные тенденции горно-металлургического комплекса».: Навои, 12-14 июня 2017 г., с. 428.

## FIZIKA DARSALARIDA ZAMONAVIY AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH AFZALLIKLARI

**Xoliqova Nigora Aminovna**

*Buxoro viloyati, Kogon tumani 9-umumi o'rta  
ta'lim maktabi fizika fani o'qituvchisi*

**Annotasiya:** *Ushbu maqolada fizika fanlarini o'qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining qo'llanishining ahamiyati va afzalliklari haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *axborot, texnologiya, kompyuter, model, jarayon, tamoyil, dastur, harakat, taqdimot, audio, video, animasiya.*

Bugungi kunda jamiyatimiz oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri yangicha tafakkur, ijodiy fikrlash, intellektual salohiyatga ega bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalashdir. Fizika fanini o'qitishni takomillashtirish o'quvchilarning faolligini oshirish, ularning aql zaxirasidagi bilimlar doirasini chuqurlashitirish va yangi imkoniyatlarga tayanuvchi samarali usullarni joriy qilish dolzarb masala bo'lib kelmoqda. Fizika darslarida kreativ texnologiyalardan foydalanish va shu orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlash hamda ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish hamda tayyorlanayotgan kadrlarning bu sifatlarini rivojlantirish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir. Mazkur texnologiya tadqiqotchilik xarakteriga ega bo'lib, u asosan o'quvchilar ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Fikrning ravonligi, uni maqsadga muvofiq yo'llay olish, o'ziga xoslik, qiziquvchanlik, farazlar yaratish qobiliyati kabilar kreativlikni tavsiflaydigan qator individual qobiliyatlardir.

Ta'lrim tizimida multimediyali elektron o'quv adabiyotlar, ma'ruzalar, virtual laboratoriya ishlari, har xil animatsion dasturlar va qo'shimcha ishlarni bajarish uchun kerak bo'ladigan maxsus dasturlar hisoblanadi. Bunday dasturlar bir necha turga bo'linib ularning hozirgi kunda keng qo'llanilmoqda. Misol uchun, animatsion rolik yaratish uchun Macromedia Flash dasturidan foydalaniladi. Multmediali taqdimot ma'ruzalarini yaratish uchun bizga ma'lum bo'lgan Power Point va Prezi dasturlari qo'llaniladi.

Elektron o'quv adabiyotlarni yaratish davomida keng foydalaniladigan tahrirlovchi dasturlar mavjud bo'lib, ulardan, misol uchun Adobe Photoshop dasturidan rasmlarni tahrirlash, sifatini oshirishda foydalaniladi. CorelDraw dasturi orqali har xil grafiklarni yaratish mumkin, tovush va videolarni tahrirlash uchun esa Sound Forge va Adobe Primier dasturlaridan keng foydalanish mumkin. Shuningdek, ta'lrim tizimida tayyor ishlab chiqilgan multmediali electron o'quv qo'llanmalar hozirgi kunda keng tarqalgan.

Axborot texnologiyalari imkoniyatidan foydalangan holda kompyuter modellaridan o'quv jarayonlarida foydalanish o'zining samarasini beradi. Kompyuter modellarini o'quv jarayonida qo'llash tamoyillari qo'yidagilardan iborat:

- kompyuter dasturi tajribani o'tkazish mumkin bo'lgan yoki tajriba kuzatib bo'lmas darajada harakatlangan paytda qo'llanilishi lozim.
- kompyuter dasturi o'rganilayotgan detalni aniqlashda yoki echilayotgan masalaning illyustratsiyasida yordam berishi kerak.
- ish natijasida o'quvchilar model yordamida xarakterlovchi kattaliklarning ham sifatiy, ham miqdoriy bog'lanishlarini ko'ra bilishlari kerak.
- dastur bilan ishlash davrida foydalanuvchilarning vazifasi turli qiyinlikdagi topshiriqlar ustida ishslashdan iborat, chunki bunday jarayon o'z ustida mustaqil ishslashga imkon beradi.

Kompyuter texnologiyalarini o'quv jarayoniga, ayniqsa fizika fanlarini o'qitishda qo'llanilishi o'zining yuqori samvarasini bermoqda. Fizika fanlarini o'qitishda amaliy mashg'ulotlarning bajarilishi nazarda tutilganligi bilan boshqa fanlardan farq qiladi. Tajribalarning kompyuterli variantlaridan ko'ra, laboratoriya sharoitida tajribalarni bajarish ma'qulroq. Biroq, ekologik muammolar nuqtai-nazardan, salomatlikka ta'sir etadigan moddalar bilan ishslash, masalan, galogenlar, oson alanganlanuvchi moddalar bilan tajribalar o'tkazishdan ko'ra virtual tajribalar orqali xavflarsiz mashg'ulotlarni amalga oshirish ancha qulayliklar yaratadi. Tajriba jihozlarining etishmaslik holatlarida kompyuter bu kamchiliklarni osonlik bilan to'ldiradi. Bundan tashqari barcha virtual tajribalarni osonlik bilan ko'p marotaba takrorlash imkoniyatlari kompyuterli o'qitish usulining afzalliklaridan biri ekanligi yaqqol ko'rindi.

Bugungi kunda o'qitishning an'anaviy ko'rinishidan farq qiladigan zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash yuqori samaradorlikka erishishga imkoniyat yaratadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Suyarov K.T. O'quvchilarning fizikadan olgan eksperimental bili, o'quvi va ko'nikmasini tekshirishning darajalari va ularni amalda qo'llash //Ta'lim, fan va innovatsiya. 2016.
2. Abdalova S. Mustaqil ta'limni boshqarish va o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda kreativ texnologiyalar ning o'rni //Ta'lim menejmenti.- Toshkent, 2011.
3. Abdullayev G.A. Fizika. "O'qituvchi"-1989.
4. Bandarkova A. Kreativnaya pedagogicheskaya texnologiya formirovaniya professionalnoy kulturi uchashixsya // Nauchno-metodicheskiy jurnal.- Moskva, 2008.

УЎТ:633.51.73

**ИНГИЧКА ТОЛАЛИ ТЕРМИЗ-202 ҒЎЗА КЎСАКЛАРИНИНГ ОЧИЛИШ  
МУДДАТЛАРИГА БОҒЛИҚ ҲОЛДА ЧИГИТНИНГ СИФАТ  
КЎРСАТКИЧЛАРИГА ДЕФОЛИАНТЛАРНИНГ ТАЪСИРИ**

**Кодиров Ахмаджон Абдурауфович**

*Тошкент давлат аграр университети Термиз филиали асистенти*

**Аннотация:** Сурхондарё вилояти шароитида парваришиланаётган ингичка толали Термиз-202 ғўза навининг кўсаклари 30-40% ва 40-50% очилиши муддатларга боғлиқ ҳолда, Суюқ-ХМД 8,0-9,0 л/га ҳамда ЎзДЕФ 7,0-8,0 л/га меъёрда дефолиантларни қўллаш, кейинги насл чигитларининг биологик ва кимёвий хусусиятларини ёмонлаштирумади. Аксинча, дефолиантлар таъсирида чигитларнинг сифати назоратга тенг ёки бироз юқори бўлганлиги аниқланди.

**Калит сўзлар:** ингичка толали Термиз-202 ғўза, дефолиант, Суюқ-ХМД, ЎзДЕФ, меъёр, муддат, 1000 дона чигит, ядро, умумий азот, оқсилли азот, ақсилсиз азот.

**Кириш.** Бугунги кунда ингичка толали ғўза навларининг майдони кенгайиб бормоқда ва янги навлари яратилмоқда, бу навларда янги маҳаллий дефолиантларнинг меъёр ва муддатларини ишлаб чиқиш долзарб ҳисобланади. Кейинги йилларда ингичка толали пахтага ҳукумат даражасида эътибор қаратилиб, бир қанча қарор ва фармонлар қабул қилинган, жумладан, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 30 январдаги “Ингичка толали пахта етиштиришни самарали ташкил қилиш, янги навларни кўпайтириш ва рағбатлантириш механизмини жорий этиш тўғрисида” ги 47-сонли қарори қабул қилиниб, қарорга кўра худудларнинг тупроқ-иқлим шароитларини инобатга олган ҳолда ингичка толали ғўзанинг тола сифати юқори бўлган, касаллик ва зааркундаларга чидамли, тезпишар, серҳосил навларини яратиш, уларнинг экиш майдонларини кенгайтириш, янги ва истиқболли навлари уруғларини кўпайтириш ҳамда етиштириш агротехнологияларини ишлаб чиқиш долзарб вазифалардан бири эканлиги белгиланган.

Ғўза дефолиацияси, пахта ҳосилини ўз муддатида сифатли йиғиб-териб олишда муҳим аҳамиятга эга агротехник тадбир ҳисобланади.

Р.С.Назаровнинг эътироф этишича, ўз муддатида ғўза баргларини дефолиантлар ёрдамида баргизлантириш натижасида, кўсакларининг пишиб етилиши ва очилишини тезлаштиради, тола сифати ошади, тола ҳамда кўсакларнинг чириши тўхтайди. Дефолиантлар тўлиқ таъсир кўрсатиши учун ўсимлик баргини

тўкишга тайёрлаш, яъни биологик жиҳатдан барг тўкишга мойил ҳолатига қараб, ҳар бир дала учун алоҳида белгиланмоғи керак [1].

Иzlанишларда (2018-2020 йй) ингичка толали “Термиз-202” ғўза кўсакларининг очилиш муддатларига боғлиқ ҳолда чигитнинг кимёвий таркибига Суюқ-ХМД ва ЎзДЕФ дефолиантларининг таъсири ўрганилди.

Тадқиқот натижаларига кўра, тажриба ўтказилган йилларда дефолиантларнинг чигит сифат кўрсаткичларига таъсири ўрганилганда, қолган (2019-2020) йилларда ҳам бир-бирига яқин қонуният кузатилганлиги сабабли, 2018 йилда олинган маълумотлар келтирилди.

Ингичка толали “Термиз-202” ғўза навининг кўсаклари **30-40%** очилган муддатда (2018 й) дефолиация ўтказилган фоннинг назорат вариантида 1000 дона чигит вазни 114,4 г ни, чигит майдорлиги эса 21,8% ни, ядро чиқиши 59,4% ни ташкил этди. Ушбу чигит ядроидаги азот шакллари ўрганилганда, ундаги умумий азот шакли 2,18%, шундан оқсилли азот 1,60% ва оқсилсиз азот 0,58% бўлганлиги кузатилди.

Суюқ-ХМД дефолиант турли (8,0-9,0-10,0 л/га) меъёрларда қўлланилган варианtlарда 1000 дона чигит вазни 115,4-115,0-114,6 г ни, чигит майдорлиги эса 22,6-22,2-22,0% ни ташкил этиб, назоратга нисбатан 0,8-0,4-0,2 га ошганлиги кузатилди. Ядро чиқиши 60,1-60,0-59,6% ни ташкил этди. Умумий азот шакли 2,37-2,32-2,29% ни, шундан оқсилли азот 1,51-1,53-1,51% ни ва оқсилсиз азот 0,86-0,79-0,78% ни ташкил этганлиги аниқланди. Шунингдек, ЎзДЕФ дефолиантини турли (7,0-8,0-9,0 л/га) меъёрларда қўлланилган варианtlарда 1000 дона чигит вазни 116,1-115,4-115,3 г ни, чигит майдорлиги эса 22,7-21,9-22,1% ни, ядро чиқиши 61,9-61,4-61,2% ни ташкил этиб, назорат вариантига нисбатан ядро чиқиши 2,5-2,0-1,8 г га юқори бўлганлиги кузатилди. Умумий азот шакллари 2,36-2,28-2,30% ни, шундан оқсилли азот 1,58-1,51-1,52% га ва оқсилсиз азот 0,78-0,77-0,78% га teng бўлганлиги кузатилди.

Шу ўринда таъкидлаб ўтиш керакки, бундай натижалар М.Мередовнинг изланишларида яъни, ингичка толали 9871-И ва Ашхабад-25 навларини сунъий баргизлантириш учун Дропп дефолиантини 250 г/га меъёрда қўлланилганда юқори самарадорликка эришилиб, унинг натижасида 1000 дона чигит вазни 2,9 г. га ошганлиги ҳамда чигитнинг униб чиқиш қуввати 99,7% гача ошганлиги аниқланган [2].

Биринчи муддатда Суюқ-ХМД дефолиантини 8,0 л/га ҳамда ЎзДЕФ дефолиантини 7,0 л/га меъёрда қўлланилганда яхши натижа олиниб, 1000 дона чигит вазни мос равища 115,4-116,1 г ни ташкил этиб, назорат вариантига нисбатан 1,0-1,7 г. га ошганлиги кузатилди. Чигит майдорлиги эса назоратдан 0,8-0,9% га (22,6-22,7%) юқори бўлди. Ядро чиқиши 60,1-61,9% ни, умумий азот 2,37-2,36% ни, оқсилли азот 1,51-1,58% ни ва оқсилсизи 0,86-0,78% ни ташкил этганлиги аниқланди.

Ғўза кўсаклари **40-50%** очилган муддатда дефолиация ўтказилган фоннинг назорат вариантида 1000 дона чигит вазни 115,3 г ни, чигит майдорлиги 22,1% ни,

ядро чиқиши 60,5% ни, умумий азот шакли 2,23% ни, шундан оқсилли азот 1,47% ни ва оқсилсиз азот 0,76% ни ташкил этди.

Қишлоқ хўжалик экинлари уруғининг биологик қиммати, унинг уруғида ядронинг микдори билан белгиланади. Чунки, чигит таркибидаги ядро микдори куртакнинг соғлом ўсиб ривожланиши учун керакли озиқа манбаи ҳисобланади [3].

Суюқ-ХМД дефолиант турли (8,0-9,0-10,0 л/га) меъёрларда қўлланилган варианларда 1000 дона чигит вазни 116,2-116,6-115,5 г ни, чигит майдорлиги эса 22,0-22,1-21,9% ни, ядро чиқиши 62,6-63,4-61,7% га тенг бўлди. Ушбу чигит ядросидаги азот шакллари ўрганилганда, ундаги умумий азот шакли 2,35-2,39-2,32% га, шундан оқсилли азот 1,49-1,52-1,47% га ва оқсилсиз азот 0,86-0,87-0,85% га тенг бўлганлиги кузатилди. Шунингдек, ЎзДЕФ дефолиантини турли (7,0-8,0-9,0 л/га) меъёрларда қўлланилган варианларда эса 1000 дона чигит вазни 116,6-117,0-116,0 г ни, чигит майдорлиги 22,3-22,6-22,3% ни ташкил этиб, ядро чиқиши 62,8-63,2-61,9% га тенг бўлди. Умумий азот шакли 2,34-2,42-2,33% га, шундан оқсилли азот 1,49-1,60-1,51% га ва оқсилсиз азот 0,85-0,82-0,82% га тенг бўлганлиги аниқланди.

Таҳлил натижасига кўра, биринчи муддатда 1000 дона чигит вазни ва майдорлиги иккинчи муддатницидан бироз камлиги кузатилди. Бу эса ғўзанинг дефолиация қўллаш муддатлари орасида биологик ва физиологик етилишида фарқ борлигининг аниқланди.

Иккинчи муддатда Суюқ-ХМД 9,0 л/га ва ЎзДЕФ 8,0 л/га меъёрда қўлланилган варианларда юқори натижалар аниқланиб, 1000 дона чигит вазни мос равиша 116,6-117,0 г ни ташкил этиб, назорат вариантига нисбатан 1,3-1,7 г. га ошганлиги кузатилди. Чигит майдорлиги 22,1-22,6% ни, ядро чиқиши 63,4-63,2% ни, умумий азот 2,39-2,42% ни, оқсилли азот 1,52-1,60% ва оқсилсиз 0,87-0,82% ни ташкил этганлиги аниқланди.

Олинган натижалардан маълум бўлди, дефолиация қилинган варианлардаги кўсаклар қуёш иссиқлиги ( $30-350^{\circ}\text{C}$ ) ва ёруғлигидан самарали фойдаланиб, унда ёғ (ядро) ва оқсилларнинг бироз ортиши маълум бўлди (1-жадвал).

Хулоса қилиб айтиш мумкинки, Сурхондарё вилоятининг тақирсимон тупроқлари шароитида парваришланаётган ингичка толали “Термиз-202” ғўза навининг кўсаклари 30-40% ва 40-50% очилган муддатларда, маҳаллий Суюқ-ХМД ҳамда ЎзДЕФ дефолиантларни мақбул (8,0-9,0 ва 7,0-8,0 л/га) меъёрларда қўллаш, кейинги насл чигитларининг биологик ва кимёвий хусусиятларини ёмонлаштиrmади. Аксинча, дефолиантлар таъсирида чигитларнинг сифати назоратга тенг ёки бироз юқори бўлганлиги аниқланди.

**1-жадвал**

**Дефолиантларнинг чигитнинг кимёвий таркибига таъсири, (Сурхондарё вилояти, 2018 й.).**

№	Вариант	1000 дона чигит массаси, г	Ядро чиқими, %	Умумий азот, %	Оқсилсиз азот, %	Оқсилли азот, %	Мойдорлик, %
<b>30-40% кўсаклар очилган муддатда</b>							
1	Назорат-	114,4	59,4	2,18	0,58	1,60	21,8
2	Суюқ- ХМД-8,0 л/га	115,4	60,1	2,37	0,86	1,51	22,6
3	Суюқ- ХМД-9,0 л/га	115,0	60,0	2,32	0,79	1,53	22,2
4	Суюқ- ХМД-10,0 л/га	114,6	59,6	2,29	0,78	1,51	22,0
5	ЎзДЕФ- 7,0 л/га	116,1	61,9	2,36	0,78	1,58	22,7
6	ЎзДЕФ- 8,0 л/га	115,4	61,4	2,28	0,77	1,51	21,9
7	ЎзДЕФ- 9,0 л/га	115,3	61,2	2,30	0,78	1,52	22,1
<b>45-50% кўсаклар очилган муддатда</b>							
8	Назорат-	115,3	60,5	2,23	0,76	1,47	22,1
9	Суюқ- ХМД-8,0 л/га	116,2	62,6	2,35	0,86	1,49	22,0
10	Суюқ- ХМД-9,0 л/га	116,6	63,4	2,39	0,87	1,52	22,1
11	Суюқ-	115,5	61,7	2,32	0,85	1,47	21,9

	ХМД-10,0 л/га						
12	ЎзДЕФ- 7,0 л/га	116,6	62,8	2,34	0,85	1,49	22,3
13	ЎзДЕФ- 8,0 л/га	117,0	63,2	2,42	0,82	1,60	22,6
14	ЎзДЕФ- 9,0 л/га	116,0	61,9	2,33	0,82	1,51	22,3

### ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

- Назаров Р. Фўза дефолиацияси. Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги. Ташкент, 1988 й. №4. Б-22.
- Мередов М. Дропп и качество волокна. Хлопок. Москва, 1991, №4. С. 17.
- Тешаев Ш.Ж. Республиканинг турли тупроқ-иқлим шароитларида янги районлашган ва истиқболли фўза навларида дефолиантларни кўллаш самарадорлигининг илмий асослари. Дисс... қиши. х/ф док-ри. – Тошкент, 2008 й. Б-314.

**IMPORTANT PHYSICAL ASPECTS OF SPORT GAMES****Yuldashev Ikromjonov***teacher, Fergana state university*

Young sportsman's intellectual training in sports games is mentioned in the article. There are also given the most important information about the development of intellectual abilities, with mental functions such as memory, attention, critical thinking, perception and others. They are considered on the main aspects of realizing technical-tactical training in sports games.

The growing competition in the world sports arena, acceleration of the training process, the recognition of athletes' achievements, the development of science in sports, and other facts require strong academic theoretical preparation from sportsmen.

The intellectual training of athletes is understood as the process of understanding the essence of sporting activities and the events associated with it. Now, we see that the gameplay is versatile in the sporting game, and the analysis of this process shows that a number of mental functions that are important for the athlete to play successfully are of great importance. Therefore, a special place is given to the formation and improvement of mental functions that ensure the process of receiving, processing, storing and transmitting information that occurs during the game. During the game, athletes use this information to correct the technical and tactical issues, such as the best place on the pitch, who is with the ball and where the ball, possible opponent's resistance, etc...

For this purpose, the sensory perception parameters, in particular the depth and extent of vision are important. The first determines whether the moving object is capable of detecting distant-action features, such as the ability to detect the distance between the flying ball and the moving player, and the second - determines whether the players are located on the playing field.

When starting the attack, the player must see the position of his or her partners, as well as the defender, goalkeeper, and other opponents. The defender should keep the ball in the protective field and be ready to defend his partner at the same time. Often, the athlete controls his focus on the main subject at that time, in the player, and controls the rest of the peripheral vision. Specific features of this activity create a complex perception of athletes during the process. On its basis, the ability to distinguish between different analyzer, *i.e.*: muscular, vestibular, vision, hearing and sensing analyzer, develops. Such perceptions include "perception of the gate", «perception of sports field», "perception of the ball", "and perception of time" and others. However, athletes who have high sporting results can only achieve such perceptions. One of the main tasks of intellectual preparation is to create a high level of gameplay in athletics.

Their memory features are of great importance in successfully improving the technical and tactical skills of athletes. These include the amount of memory, the speed of memory, the retrieval of the data, and the ability to reprint it at the right time. Memory features of the

athletes depend on performance of 2-types of memory: long-term and short-term or operative memory. In the work of sportsmen, more attention is paid to memory. RAM memory is used to store data received shortly and reminder a part of the long-term memory in the athlete's mind.

During the training, players have to remember many tactical schemes. Moreover, during the competition, they need to be able to find and apply tactical, tactical, tricks for the young, original, opponent in the performance of the game. All these things need to be kept by the athlete in his own memory and at the right time.

In sports (handball, basketball, soccer, etc.), because of the acceleration of the pace of play, and often with the athlete's partner in the shortest possible time, they develop the mental functions of the athlete who provide the processing of the information that is needed for accurate and fast moving and predicting the future situation in the game level is of great importance. First of all, operative thinking plays an important role in the immediate development of the information received. Operative Thinking Instantly, the actions that are going to take place in the process of combinations cannot be used to think, that is, in time deficiency. Observations show that in most sports games, players apply their most effective technical and tactical methods to the active opponent's resistance. We think that rapidly changing tactical conclusions as a result of the game are the result of an operative thinking process. The player immediately chooses one of several options, which is appropriate for that situation. Often, volleyball players, basketball players and hand-ballers choose the ones that are well known and familiar to all (combinations).

It should also be taken into account that operative thinking includes elements of creative thinking. The process of educating the intellectual abilities that meet the specific needs of the players is based on the knowledge gained and requires a creative approach in practical work. For example, tactical schemes can be better understood and applied without errors. However, practice has shown that athletes need to be actively involved in finding new and new methods that are used in each particular case to develop operational tactical thinking.

High results in sports, physical, technical and tactical training of a sportsman are related to his psychic qualities and development of his personal qualities. For example, if the athlete's motion sensitivity, movement memory, and attention are not tailor-made, it is impossible to accomplish any of these techniques.

Athletes have developed a system of special knowledge that encourages a creative approach to the development and improvement of intellectual abilities. These tasks are focused on focusing, and at the same time concentrating on exercises. For example: two players to practice with more than one ball; two players move in different directions in the motion; exercise will be used to develop a complex selection reaction.

# ИЗУЧЕНИЕ ВОЗМОЖНОСТЕЙ КОМПЛЕКСА ГЕОФИЗИЧЕСКИХ МЕТОДОВ НА ЗОЛОТОРУДНОМ МЕСТОРОЖДЕНИЕ ЧАРИМИТАН

Диярова Нигинабону Азамжон Кизи

Факультет геолога разведочный

Кафедра: Геофизические методы поисков и разведки  
месторождений полезных ископаемых.

Рудничная геофизика.

**Аннотация:** Узбекистан - страна, богатая природными ресурсами, запасами золота и полезных ископаемых. Одно из месторождений золота - золото Чармитан. В данной статье автор дает общие сведения о Чармитанском золоторудном месторождении, а также представляет свой анализ и факты по изучению возможностей комплекса геофизических методов на Чармитанском золоторудном месторождении.

**Ключевые слова:** месторождение золота, горнодобывающая промышленность, руды, полезные ископаемые, добыча золота и другие.

Самым большим и богатым районом культурного ареала Самарканда, богатым запасами драгоценных металлов, является Чармианский культурный район. Есть три крупных месторождения - Чармитан, Гуджумсай и Янгибулак. Золотоносные объекты Чармитанского рудного района имеют единое геологическое строение, единый технологический цикл, однотипны по морфологии и составу руд. Месторождение расположено в северном Нуратинском золоторудном поясе Зарафшано-Туркестанской металлогенической зоны. Здесь минерализованные точки золота, вольфрама, молибдена, свинца, серебра, урана. Основным минералом региона является золото, и на практике в разных зонах структурного формирования были обнаружены разные постройки. Индустриальные, богатые золотом цивилизации связаны с интуицией Кошрабат.

Золотокварцевое месторождение Чармитан было открыто И.Х. Хамрабаева (1958) и лежит на южном склоне хребта Нурагау (Западный Узбекистан) в 80 км к северо-западу от города Самарканда. Доказанные запасы золота месторождения составляют 400 тн. Месторождение расположено в пределах крупной Кызылкум-Нурагауской золотоносной провинции Южного Тянь-Шаня (Узбекистан), где расположены знаменитое месторождение Мурунтау, а также Даугызтау, Кокпатаас, Амантайтау, Сармич и некоторые другие месторождения золота. Эти отложения считаются типичными мезотермальными отложениями, расположенными в метаморфических терригенно-углеродистых породах. Происхождение этих месторождений давно стало предметом дискуссий. Одна из гипотез предполагает сингенетико-эпигенетическое происхождение отложений Кызылкумского района. Согласно этой концепции, руды возникли в результате эпигенетической

трансформации золотоносных отложений, которые образовались при распаде древних кар выветривания и более ранних золоторудных месторождениях. Золото накапливалось в пониженных условиях застойных мелководных бассейнов. Было высказано предположение, что слоистые руды образовывались при разгрузке воды из горячих источников высокой солености на морское дно. Считалось, что дискордантные рудные тела представляют собой питающие каналы, по которым флюиды мигрировали на морское дно. Сторонники метаморфно-гидротермального происхождения мезотермальных месторождений золота считают, что они возникли в результате дегидратации и декарбонизации пород в ходе регионального метаморфизма.

Многие исследователи считают, что месторождения золота Западного Узбекистана связаны с постмагматическими процессами, связанными с герцинскими кранитоидами. Они предполагают, что эти отложения возникли на эрогенной стадии геологической эволюции, и их распространение, как и положение магматических пород, контролируется такими же протяженными зонами глубинных разломов. Они подчеркивают, что месторождения обычно расположены в 2–6 км от крупных массивов палеозойских кранитоидов, и нет никакой связи минеральных ассоциаций и типа изменения вмещающих пород с литологическим составом вмещающих пород. Эти особенности считаются свидетельством магматогенное-гидротермального генезиса золотых месторождений Западного Узбекистана. В то же время масштабный практический проект, посвященный изучению редкоземельных элементов, распространенных в метасоматозах рудного района Чармитан, также поможет найти участки и месторождения редкоземельных элементов, используемых в различных секторах нашей экономики. Научная значимость проекта заключается в том, что редкоземельные элементы в несколько сотен раз дороже золота и серебра, и почти все их виды идут на экспорт. Геология - многогранная и междисциплинарная область. Очень интересно работать в поле, жить в палатках на разных горных хребтах, снимать фотоаппарат под звездным небом, изучать образцы, взятые со скал, которые скрывают свои тайны на лоне природы. Любовь к этой профессии, а также внимание и доверие со стороны государства мотивируют нас, геологов, вносить свой вклад в развитие этой области.

Минеральные ассоциации, присутствующие в золотом осреднении Чармитан, были исследованы на предмет их катодолюминесцентного поведения, химического состава и систематики изотопов благородных газов. Этот перечень методов позволяет впервые провести систематическую реконструкцию парагенетических взаимоотношений кварца, шеелита, сульфидов и самородного золота в золотом осреднении Чармитана и обеспечивает основу для использования данных по благородным газам при обсуждении источников и эволюции руды. формовочные жидкости. Образовавшееся месторождение золота, охватывающее рудные тела Чармитан и Гужумсай, содержит около 30 млн тонн руды, содержащей 300 тонн золота с содержанием около 10 г / т золота в виде свободно измельчаемых

сульфидсодержащих слоистых кварцевых жил и, в меньшей степени, в упорные мышьяковистые высоко сульфидные руды на восточной оконечности Чармитанского месторождения, в среднем 8 г / т Au. Одно только месторождение Чармитан содержит запасы 210 тонн золота с содержанием золота 8,7 г / т при общих ресурсах не менее 245 т золота. Согласно классификации запасов Узбекистана, на январь 2000 г. запасы / ресурсы составили: C1 - 11,344 млн т при 10,9 г / т Au, 9,4 г / т Ag на 123,4 т Au; и C2 - 12,863 Mt @ 9,4 г / т Au, 12,1 г / т Ag на 121,805 т Au. Эти данные о запасах основаны на более чем 7000 открытых скважин, близком отборе проб из более чем 133 км разведочных подземных разработок и более 884000 метров подземного алмазного бурения на Чармитане и Гужумсае с момента открытия месторождения в 1960-х годах. Добыча началась на месторождении Чармитан в 1970 году под контролем государственной компании «Узалмаззолото» в виде ряда открытых карьеров, которые продолжались до 1997 года. Подземная добыча началась в 1989 году со скоростью примерно 0,1 млн т в год, при этом руда перерабатывалась на смолу. завод по производству целлюлозы по производству золота в Марданбулаке, отдельном участке, расположенным примерно в 85 км к востоку.

### ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Bannikova, L.A., Organicheskoe veshchestvo v gidroter-mal'nom rudoobrazovaniy (Organic Matter in Hydrothermal Ore Formation), Moscow: Nauka, 1993.
2. Bortnikov, N.S., Genkin, A.D., and Chryssoulis, S., Deposition Environment of Gold-Bearing Arsenopyrite in Mesothermal Deposits, Current Research in Geology Applied to Ore Deposit, Granada: Univ. Granada, 1993, pp. 45–48.
3. Kurbanov, N.K., Arifulov, Ch.Kh., Kucherevskii, P.G., et al., Geological–Genetic Models of Gold Deposits in Carbonaceous Terrigenous Complexes, Rudy Metally, 1994, no. 2, pp. 55–69.
4. Mills, K.C., Thermodynamic Data for Inorganic Sulfides, Selenides, and Tellurides, London: Butterworth, 1974.

## ЭКСТРАКЦИОН ФОСФОР КИСЛОТАСИН НЕЙТРАЛЛАШ ЖАРАЁНИДА ХОСИЛ БЎЛГАН ШЛАМНИНГ РЕНТГЕНОГРАФИК ТАҲЛИЛИ

Утамуродова Мехрангиз Аъзам қизи  
Хужамбердиев Шерзод Мусурманович  
Тошкент кимё-технология институти

Ҳозирги кунда Ўзбекистон шароитида энергия ва ресурстежамкор технологияларни яратиш ва такомиллаштириш борасида бир қатор амалий дастурлар амалга оширилмоқда. Натрий фосфатлари озиқ-овқат, косметика, форматцевтика, кимё, қурилиш ва бошқа соҳаларда кенг қўлланилади.

Фойдаланиш шартларига ва хусусиятларига бўлган талабга қараб, алоҳида полифосфатлар ва таркибида ўзгармайдиган бирикмалар тутган аралашмалари қўлланилади. Аммоний полифосфатлар ўғит ва антипирен сифатида ишлатилади. Кальций, калий ва аммоний полифосфатлари озиқ-овқат таъмини яхшиловчи восита сифатида қўлланилади. Ишқорий метал полифосфатлари сувда юқори эрувчанлиги ва структуравий хоссалари туфайли кенг профилда ишлатилади [1, 2].


Натрий полифосфатлар сувни қайта ишлаш ва сув таъминотида ишлатиладиган қувурларнинг коррозия бардошлигини ошириш учун кенг қўлланилади. Полифосфатлар томонидан коррозия хусусиятининг камайтирилиши исиқлик алмашиниш ва энергетика соҳасида истиқболли лойиҳа сифатида қўллаш мумкин. Технологик мойлаш материаллари таркибида эритилган фосфатлардан фойдаланиш металларни қайта ишлаш жараёнларини сезиларли даражада оширади, шунингдек, экологик иш шароитларини яхшилаш имконини беради.

Натрий полифосфат тузларини олиш учун экстракцион фосфор кислотасини сода билан нейтраллаш икки босқичда олиб борилди. Биринчи босқичда ( $pH=4,5-5$ ) асосий қўшимчалар ажратилди ва иккинчи босқичда ( $pH \approx 6,2-6,7$ ) нейтраллаш жараёни олиб борилди. Ҳар бир босқич охирида эритма фильтрланди. Биринчи босқичда асосан макроқўшимчалар чўкма (алюминий, темир, фтор, кальций фосфат шламлари) ҳосил қиласи ва фильтрланиб ажратиб олинди [3].

Биринчи босқич нейтраллаш жараёнида мононатрийфосфат эритмаси ҳосил бўлиши қўйидаги кимёвий реакциялар бўйича боради:



Экстракцион фосфор кислотасини кальцинацияланган сода билан нейтраллаш жараёнининг биринчи босқичида ( $pH=4,5$ ) ажратиб олинган шламининг рентгенографик таҳлили қўйидаги расмда келтирилган.



**Расм. pH=4,5 мұхиттада ажратиб олинган шламнинг рентгенографик таҳлили**

Олиб борилған рентгенографик тадқиқот натижаларининг таҳлили ўрганилди. Ҳосил бўлған асосий кўрсаткич пики 3,3514 ва 3,1988 Å CaHPO<sub>4</sub> (дикальцийфосфат) тегишли эканлиги аниқланди. Демак, эритма таркибида Ca<sup>+</sup> ионларининг миқдори қанчалик кўп бўлса фосфат ионларининг маҳсулот таркибидаги унуми камайишига олиб келади. Жараёнда мононатрийфосфат эритмаси ажратиб олиниши билан бирга шлам таркибида ҳам қолиши аниқланди: 4,0721, 3,9422 ва 2,7204 Å NaH<sub>2</sub>PO<sub>4</sub>. Бу эса фильтрлаш жараёнини янада интенсивлантиришни талаб этади. Алъюминий ва темир ионлари эса 2,9531 ва 2,7630 Å Fe,Al(PO<sub>4</sub>) ҳолат чўкма ҳосил қилиши кузатилди. Мазкур бирикмалар таркибидаги фосфат ионларининг сувда эрувчанлиги жуда камлигини ҳисобга олсак, тайёр маҳсулот таркибида мавжуд бўлишига йўл қўймаслик талаб этилади, шунингдек, ўғит сифатида фойдаланиш имкониятларини ҳам камайтириб юборади. Хомашё таркибидаги фтор ионлари эса 3,302 Å Na<sub>2</sub>SiF<sub>6</sub> ва 3,1579 Å CaF<sub>2</sub> ҳолатда бирикмалар ҳосил бўлиши кузатилди.

Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки, нейтраллаш жараённида ҳосил бўлған шламни таркибидаги қўшимчалар асосан, фосфатлар ҳолатида чўкма ҳосил қилиши аниқланди. мононатрийфосфатни шлам таркибида камайтириш учун натрий фосфат эритмасини фильтрлаш жараённида температурани ошириш орқали камайтириш мумкин. Темир фосфат ионларини эрувчанлиги паст ҳисобланади. Ҳосил бўлған шламни юқори температурада ишлов бериш орқали хусусиятларини яхшилаш истиқболли лойиха ҳисобланади.

**ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:**

1. Sadegh F., Fayazi A. Analysis of crystalline structure of sodium tripolyphosphate: effect of pH of solution and calcination condition. Isfahan, Iran. Ind. and Eng. Chem. Res. - 2012. - 51, № 3. – Р. 1093-1098.
2. Cheremysinova A., Sknar I., Kozlov Y., Sverdlikovska O., Sigunov O. Study of thermal dehydration of sodium orthophosphate monosubstituted / Eastern-European Journal of Enterprise Technologies ISSN 1729-3774. 3/6 (87) 2017. – Р. 60-66.
3. Хужамбердиев Ш.М., Арифджанова К.С., Меликулова Г.Э., Мирзакулов Х.Ч. Получение триполифосфата натрия из экстракционной фосфорной кислоты на основе фосфоритов Центральных Кызылкумов // Научный-технический журнал «Развитие науки и технологий». Бухара. -2018. -№ 4. – С. 75-79.

**РАДИАЦИЯВИЙ ХАВФСИЗЛИКНИ ТАЪМИНЛАШ СОҲАСИНИ ТАРТИБГА  
СОЛИШ**

**Файзуллаев Олламурод Тўхтамуродович**

*Ислом Каримов номидаги*

*Тошкент давлат техника университети*

*Термиз филиали 15/20гуруҳ талабаси*

**Радиация** [лот. *radiatio* – нурланиш] – ядровий ўзгаришлар оқибатида вужудга келадиган электромагнит ва корпускуляр нурланишлар, Қуёш нурланиши, космик нурлар оқимлари. Радиациянинг тирик организмга таъсири нурланиш дозаси билан белгиланади. Рентген (р) билан ўлчанади. Радиация миқдори сингувчи радиация ва бошқа(лар) радиоактив нурланишларнинг шикастловчи таъсирига боғлик. Бир кунда 20 р гача радиация киши организми учун хавфсиз доза ҳисобланади. Бундан ортиқ миқдордаги радиация организмдаги тўқималарни шкастлаб, кишини нурланиш касаллигига мубтало қиласди. Радиация дозаси дозиметрик асбоблар ёрдамида ўлчанади. Радиоактив модда (алфа, бетта,  $\gamma$ -нурлар, нейтронлар ва бошқалар) ва ионловчи нурланиш манбалари (рентген қурилмалари) билан ишларида уларнинг зарарли дозасини хавфсиз нурланиш дозасигача камайтириш учун тадбирлар комплекси ишлаб чиқилган.

Берк нурланиш манбалари (герметик нуланиш манбалари, рентген қурилмалари, телаткичлар ва бошқалар)дан атроф муҳитга радиоактив моддалар тарқапмайди. Бундай манбалар билан ишлаганда организмга фақат ташқи нурланиш таъсир қиласди. Ташқи нурланиш дозасини камайтириш учун нурланиш майдонида ишлаш вақтини минимал ҳолатга келтириш, узоқ масофада туриш ва манба ёки объектни экранлаш керак. Очиқ нурланиш манбалари билан ишлаганда радиоактив моддалар нафас йўли, ошқозон, ичак ёки тери орқали организмга кириши ва организм ичдан нурланиши мумкин. Ички нурланиш дозасини камайтириш учун технологик ускуна ва иш жойини герметиклаш, вентилция тизимларига фильтр қўйиш, шахсий ҳимоя воситаларидан фойдаланиш ва радиацион гигиена қоидаларига амал қилиш зарур. Радиоактив модда ва бошқа(лар) ионловчи нурланиш манбалари билан ишлайдиган ҳамма корхоналарда радиация хавфсизлиги хизмати (РХХ) радиацион назорат олиб боради (яна қ. Радиацион ҳимоя). Биз бўлсак радиация деганда - “ионловчи нурланиш” тушунчани ишлатамиз, чунки ушбу тушунча радиациянинг инсон ва атроф муҳитга бўлган таъсирини ифода этади. Радиациявий хавфсизликни таъминлаш соҳасини давлат томонидан тартибга солиш Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳамда у ваколат берган давлат органлари томонидан амалга оширилади.

Радиациявий хавфсизликни таъминлаш соҳасини давлат томонидан тартибга солиш қуйидагилардан иборат бўлади:

радиациявий хавфсизликка доир талабларга риоя этилишини давлат томонидан назорат қилиш ва текшириш;

ионлаштирувчи нурланиш манбалари муомаласи соҳасидаги фаолиятни лицензиялаш;

қишлоқ хўжалиги, озиқ-овқат маҳсулотларини, емларни, ичимлик ва техник сувларни, қурилиш материалларини ва улардан тайёрланган буюмларни радиациявий ифлосланиш жиҳатидан сертификатлаш;

барча турдаги қурилиш учун ер участкалари ажратилиши келишиб олинаётганда радиациявий ифлосланишни аниқлаш.

### **8-модда. Радиациявий хавфсизликни таъминлаш соҳасидаги назорат ва мувофиқлаштириш**

Радиациявий хавфсизликни таъминлаш соҳасидаги давлат назорати Ўзбекистон Республикаси Саноат хавфсизлиги давлат қўмитаси, Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлиги, Ўзбекистон Республикаси Экология ва атроф-муҳитни муҳофаза қилиш давлат қўмитаси ва Ўзбекистон Республикаси Давлат божхона қўмитаси томонидан амалга оширилади.

Ўзбекистон Республикаси Саноат хавфсизлиги давлат қўмитаси радиациявий хавфсизликни таъминлаш соҳасидаги давлат назорати органларининг фаолиятини мувофиқлаштиради, чиқинди билан боғлиқ ишларни амалга ошириш соҳасидаги маҳсус ваколатли давлат органлари фаолиятини мувофиқлаштириш бундан мустасно.

Радиациявий хавфсизликни таъминлаш соҳасидаги ишлаб чиқариш назорати ионлаштирувчи нурланиш манбаларидан фойдаланувчилар, шунингдек таркибида табиий радиоактив элементлар мавжуд бўлган хом ашё, қурилиш материаллари ва минерал ўғитлар ишлаб чиқарувчилар томонидан амалга оширилади.

Радиациявий хавфсизликни таъминлаш соҳасидаги жамоатчилик назорати Ўзбекистон Республикаси фуқаролари, фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари, нодавлат нотижорат ташкилотлари ҳамда оммавий ахборот воситалари томонидан амалга оширилиши мумкин.

Радиациявий хавфсизликни таъминлаш соҳасидаги назорат ва мувофиқлаштиришни амалга ошириш тартиби қонун ҳужжатлари билан белгилаб қўйилади.

(8-модда Ўзбекистон Республикасининг 2011 йил 13 апрелдаги ЎРҚ-282-сонли Қонуни таҳририда — ЎР ҚҲТ, 2011 й., 15-сон, 148-модда)

### **ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:**

1. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
2. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

**СОҒЛОМ ТУРМУШ ТАРЗИННИГ БАРҚАРОРЛАШТИРИШ  
ИЖТИМОИЙ ТАРАҚҚИЁТ ОМИЛИ.**

Н.Абдулазизова

Соғлом турмуш тарзини шакллантириш жамият ҳаётининг барча соҳаларида барқарорликка олиб келиши тўғрисидаги ғоялар ижтимоий-фалсафий тафаккурнинг ҳамиша долзарб муаммоларидан бири бўлиб келган.

Ўтмишда ва ҳозирда турмуш тарзи ҳақида ниҳоятда ранг-баранг концепция ва қарашлар юзага келганлиги ўз-ўзидан маълум, уларнинг энг умумий жиҳатларини ҳисобга олган ҳолда тасниф қиласидиган бўлсак, қўйидаги хуносаларга мумкин: турмуш тарзи-бу табиатни, жамиятни ва инсоннинг ўзини ўзгартиришга йўналтирилган яратувчанлик фаолиятини моддий ва маънавий эҳтиёжларни қондириш усуслари, кишиларнинг ижтимоий-сиёсий фаолият ва давлатни бошқаришда иштирок этиш шакллари назарий, эмпирик ва қадриятли йўналиши билим фаолияти жамиятда ва унинг тизимларига (ҳалқ, синф, оила, маҳалла ва бошқалар) доирасида кишилар ўртасидаги мулоқотларни ўз ичига оладиган ранг-баранг коммуникатив фаолият инсоннинг жисмоний ва маънавий ривожланишига қаратилган педагогик фаолият. Инсоннинг соғлом –турмуш тарзи ҳам бевосита шулар билан шартланган бўлиб, ҳаётий фаолият шароитга, унинг манфаат ва эҳтиёжларига боғлиқ бўлади. Соғлом турмуш тарзини барқарорлаштиришда, табиийки, одамлар қалби ва онгида миллий истиқтол ғояси ва макурасининг мустаҳкам ўрин олишини таъминлаш муҳим ўрин тутади.

Хозирда амалга оширилаётган соғлом турмуш тарзини барқарорлаштириш бўйича мажмуавий тадбирлар инсон қалбига ва шурига кириб унда соғлом турмуш тарзи шаклланишини ундейди. Бизнинг фикримизча соғлом турмуш тарзини турли мезонлари бўлиб, уларни ўлчаш мумкин. Булардан энг муҳимлари инсоннинг маънавий тарбияланганлиги, унинг жизмоний ва ақлий ривожланганлиги ҳамда психологик ҳолати ва турмуш тарзи ҳисобланиши мумкин. Фикримизча ҳар бир шахс ўзининг ушбу хислатлари ва сифатлари ривожланганлик даражасини қўйидаги функционал синовлари орқали ўзида билиш мумкин. Қўйидаги соғлом турмуш тарзини баҳоловчи мезонларни бердик:

**1. Миллий ғоя ва соғлом турмуш тарзи бўйича синовлар:**

- Психосематик тахлил-ушбу усул орқали миллий ғояни одамдаги психосематик майдонини аниқлаш;
- Психолоник ва педагогик квалометрия-баҳоланаётган шахсга тавсиф бериш;
- Ижтимоий интеллект тест;
- Гильфорд бўйича одамни ижтимоий фахм-фаросатини аниқлаш;
- Ҳадислар тўпламлар ва ахлоқ одобга доир суҳбатлар орқали чиқариладиган хуносаларга хос жавоблар;

**2. Жисмоний ривожланганлик бўйича синовлар:**

- Организмларни максимал кислород қабул қила олиш даражасига қараб уни максимал аэроб қувватини аниқлаш;
- Организмни максимал кислород қарзи даражасига қараб уни анаэроб қувватини баҳолаш;
- Жисмоний ривожланганлик даражасини интеграл баҳолашлар махсус тузилган физиологик тестлар орқали баҳолаш.
- Жисмоний соғломлик даражасини ўзида баҳолаш-сўровномалари орқали баҳолаш.

**3. Турмуш тарзини ўрганиш бўйича:**

- Ўз хаётини сифатли ўтказаётганлигини аниқловчи тестлар;
- Ўз хаётидан қониқиш даражасини аниқловчи тестлар.

Шунга кўра соғлом турмуш тарзи муаммосини барқарорлаштириш хал қилиш мақсадида қайд қилинган масалаларни ҳар бир ўсиб келаётган ёш авлод ўрганишлари мақсадга мувоғиқ деб хисоблаймиз.

Соғлом турмуш тарзини шакллантиришда чиниқиши, жисмоний тарбия ва спортнинг ўрни, заарли одатларнинг олдини олишда соғлом турмуш тарзининг аҳамияти, атроф-муҳитни муҳофаза қилишнинг инсон саломатлигига таъсири, ёшлар онгига сингдирилади. (Д.Ж.Шарипова “Талабаларда соғлом турмуш тарзини шакллантириш”. “Фаргона” нашриёти -2010 й. 28-29 бетлар)

Хуқуқшунослар, психологлар, нарко- диспансер ходимлари хамкорлигига таълим муассасаларида ўқувчи-талабаларга заарли одатлар тўғрисида тушунча бериш, видеофильмлар кўрсатиш, маъруза, давра сұхбатларини ташкил этиш, кутубхоналарда, синф хоналарда шу мавзуга оид кўргазмалар ташкил этиш ижобий натижалар беради.

Заарли одатларга қарши иммунитетни шакллантириш жараёнида ёшларда қуйидаги фазилатлар шаклланади:

- тиббий билим ва маданиятга эга бўлиш;
- соғлом авлод келажагини таъминлаш;
- шахсий ва умумий гигиена талабларини билиш ва уларга амал қилиш;
- соғлом турмуш тарзига амал қилиш;
- овқатланиш маданиятига амал қилиш;
- психогигиена талабларини билиш ва уларга амал қилиш;
- руҳий саломатлик;
- жисмоний саломатлик;
- замонавий техник воситаларидан тўғри фойдаланиш

Организмнинг ўсиши ва ривожланиши ўсмир психикасининг кескин ўзгартириши даврида организмнинг ташқи муҳит тасъуротларига беруливчанлиги юқори бўлишига олиб келади. Бунда организмининг етарли даражада чидамлилиги шаклланмаганлиги туфайли заарли таъсуротлар кучли даражада таъсир кўрсата олади.

**АДАБИЁТЛАР:**

1. Шарипова Д.Ж “Талабаларда соғлом турмуш тарзини шакллантириш”. “Фарғона”  
нашриёти -2010 й.
2. Ўзбекистон Республикаси хотин-қизлар қўмитаси “Ёшлирнинг ижтимоий  
фаоллигини ошириш-фуқаролик жамиятини барпо этиш омили”- Тошкент-2011й.

ТАКРОРИЙ ЭКИЛГАН СОЯ ДОН СИФАТИГА СТИМУЛЯТОРЛАРНИ  
ҚЎЛЛАШ УСУЛЛАРИНИ ТАЪСИРИ

